

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

MUSIQA VA UNI O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI

USMONOVA KAMOLA
**Kollejlarda musiqa metodikasi darslarini
shakllantirish yo`llari**

5141000-musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish
uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy rahbar: _____ M.Nasriddinov

Andijon – 2013 yil

**MAVZU: KOLLEJLARDA MUSIQA METODIKASI DARSLARINI
SHAKLLANTIRISH YO`LLARI**

MUNDARIJA

KIRISH3-7

I BOB KOLLEJLARDA MUSIQA METODIKASI DARSI

O`QITILISHNING MAZMUNI VA METODIKASI

1.1. *Musiqa darsining maqsadi va o`qitishga qo`yiladigan talablar.....8-12*

1.2. *Darsda musiqiy faoliyat turlaridan oqilona foydalanish samarasi13-16*

**II BOB. KOLLEJLARDA MUSIQA METODIKASIGA OID ZAMONAVIY
TALABLARNI JORIY ETISH**

2.1. *Musiqa darsiga qo`yilgan zamonaviy pedagogik talablar.....17-25*

2.2. *Musiqa o`qitish tamoyillarini zamonaviy tarzda tashkil etish*

yo`llari.....26-50

XULOSA.....51-55

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.....56-57

ILOVA

MAVZU: KOLLEJLARDA MUSIQA METODIKASI DARSLARINI SHAKLLANTIRISH YO`LLARI

REJA

KIRISH

I BOB KOLLEJLARDA MUSIQA METODIKASI DARSI

O`QITILISHNING MAZMUNI VA METODIKASI

- 1.1. *Musiqa darsining maqsadi va o`qitishga qo`yiladigan talablar*
- 1.2. *Darsda musiqiy faoliyat turlaridan oqilona foydalanish samarasi*

II BOB. KOLLEJLARDA MUSIQA METODIKASIGA OID ZAMONAVIY TALABLARNI JORIY ETISH

- 2.1. *Musiqa darsiga qo`yilgan zamonaviy pedagogik talablar.*
- 2.2. *Musiqa o`qitish tamoyillarini zamonaviy tarzda tashkil etish yo`llari*

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

ILOVA

KIRISH

Bizga ma'lumki, musiqa darsida o'quvchilarni tarbiyalash, o'qitish, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish ishlari o'qituvchi raxbarligi va nazoratida birgalikda amalga oshiriladi.. Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqa sohasi bilan tanishtirish va qiziqtirish orqali ularni estetik jihatdan tarbiyalash va eng muhimi ma'naviy sifatlarni kamol toptirish vazifalari bajariladi .

Ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan barcha mutasaddilar bola tarbiyasi bilan shug'ullanishning zamonaviy islohotlarga boy yo'nalishlari asosida olib bormoqdalar. Ya'ni hozirda ular o'z ustida tinmay izlanishlari kerak. Ko'plab o'qituvchilar o'z dunyoqarashlarini kengaytirishga, bola tarbiyasi bilan bog'liq adabiyotlarga qiziqib, unga intilmoqdalar.

Bitiruv malakaviy ishimning birinchi bobida hozirgi kunda mavjud musiqa o'qitishning metodik yo'nalishlari asosida yangi texnologiyalar yaratish, ushbu jarayonni birinchi sinfdan boshlab jadal yo'lga qo'yish zarurligini nafaqat nazariy bilimlarni , balki, amaliyotda ham qo'llash zarurligini dildan his etmoq kerakligi to'g'risida fikr yuritishga harakat qildim. Yangi pedagogik texnologiyalarga tayangan holda ko'rgazmalilik tamoyillariga to'liq rioya etilsa o'quvchilarning musiqiy tarbiyalashda, ularning musiqiy idroklarini keng yo'lga qo'yishimizni ham taqazo etadi.

Hozirga kelib musiqa darsi va uni zamon talablari asosida tashkil etishning fusunkor ko'лами Yanada kengaydi, uning mavqei tobora yuksaldi, jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlandi. Endi musiqa go'zal Vatanimizda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil soxadir. O'quv tarbiya jarayonida musiqa yosh avlodga axloqiy –estetik tarbiya berishning asosi bo'lib hisoblanadi, ta'lim jarayonining bir kadar jadallashuvi, samaradorligi unga bog'liqdir.

Ikkinchi bobda esa kollejlarda musiqa metodikasi darslarini tashkil etishda tashkil etiladigan darslarni zamon talablari asosida o'tilishini ta'min etilishi zarur, o'quvchilar o'rtasida musiqani tushunish, tinglash, ijro etish va undan hayotda manfaatdor bo'lishda pedagoglarning mahorati yuksak darajada

bo'lishi va ta'lim muassasalarida o'tiladigan darslarning sifat va samaradorligini orttirishda milliy ta'lim va tarbiya tizimiga e'tiborni qaratish lozimligini aytib o'tmoqchiman. Albatta, bu muhim psixologik kechinma, avvalam bor, shu millatga mansub har bir shaxsning, qatlamlarning hal etishi bilan yuzaga keladi, shuningdek Oliy ta'lim muassasalari vakillarining ham.

Musiqqa o'qitish metodikasida milliy tarbiya eng muhim omillardan biri hisoblanib uni yuzaga keltirish uchun, talaba Yoshlarga ta'lim berish jarayonida milliy his-tuyg'u qoidalarini o'rgatib va kasbiy mahoratlarini keng yo'lga qo'yishi zarur. Xalqimiz yaratgan durdonalarning biri xisoblangan musiqqa har soxada, chunonchi, ta'lim tarbiyada, mehnatda va ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Murg'ak go'dakdan tortib to nuroniy qariyalargacha, jismoniy mehnat soxiblaridan to aqliy mehnat axillarigacha – hamma san'at ne'matlaridan baxramand bo'ladi, ertangi kunning Yanada porlok bo'lishi uchun intiladi.

SHunday ekan, pedagoglar musiqani ongli faoliyat, samarali mehnatga samimiy munosabatda hamda mo'tadil kayfiyat garovi bo'la oladi. Musiqqa kundalik hayotimizga qanchalik singib borsa, hayotimiz shunchalik zavqli va mazmunli bo'ladi. Ayniqsa, birinchi sinf o'quvchilarini ona vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi–estetik tarbiya masalalarini muvoffaqiyatli hial qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

Musiqqa darsi estetik tarbiyaning eng asosiy kisimlaridan bo'lib, u bolalarni musiqaga yaqinlashtirish, musiqqa san'ati asarlarini tushunishga va ijro etishga o'rgatish ishlarini ularning kichik Yoshidan boshlashni taqozo qiladi.

Musiqqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muximdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning hususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochilari va hakoza) xaqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. SHu bois, musiqqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqaviy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim-tushunchalar majmuasini ya'ni musiqqa shakllari, janrlari, xalq, bastakorlik

musiqasi, ularning farqlantilib milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa, nota savodi va boshqalarni singdirib borishdan iborat.

Bundan ko`rinib turibdiki, musiqa darsida asosan musiqiy savodxonlikka e`tibor berish bilan birga tarbiyaviy jarayonlarni hamkorlikda olib borilishi shart bo`ladi. Masalan, cholg`u asboblari bilan tanishish yoki uni chalishni o`rgatishga bo`lgan holatda qanday tarbiyaviy jarayon ketishi mumkin, o`qituvchi bolaga musiqa asbobini qanday ushlash, qanday o`tirish mashqi orqali bolaga juda katta tarbiya berishi mumkin. Yoki bo`lmasa musiqa tinglash va musiqiy savodxonlik qoidalari o`rgatilayotgan vaqtni olaylik, tarbiya ko`rgan bolagina musiqani to`g`ri va to`liq bajara oladi.

Bitiruv malakaviy ishimning xulosa qismida kollejlarda musiqa metodikasi darslarini o`quvchilar dildan tushunishlari, qalban his etishlari hamda musiqa o`qituvchilari dars samaradorligida nimalarga e`tibor berishlari zarurligi xaqida to`xtalib o`tganman. Musiqa o`qituvchisi dars jarayonida o`quvchilar bilan ta`limni tarbiyaga bog`lab olib boradi.

Bunda asosan dars jarayonida o`rgatilayotgan qo`shiqlarning mazmuniga kuchli e`tibor berish zarur. Qo`shiqning mazmuni oila, ona, Vatan, tabiat haqida bo`lsa tarbiyaviy faoliyatlarni olib borish oson kechadi. Har bir bolaga qo`shiq o`rgatish bilan birga unga odob-axloq qoidalari ham shakllantirilib boriladi. Bunda milliy raqs san`ati ham darsni qiziqarli kechishida yaxshi samara beradi.

Milliy raqs san`atimizning oddiy harakatlarini bilishi (ijro eta olishi) va darsda qo`llash usullarini puxta egallashi davr talabidir. Chapak va cholg`u asboblari chalish faoliyati ham raqs va musiqali harakatlar singari o`quvchilarning musiqa hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir.

Kollejlarda musiqa metodikasi darslarida o`qituvchilar dars berish jarayonida bolalarning musiqa savodxonligini oshirish davomida ham ularning layoqatlarini shakllantirib hamda rivojlantirib boradilar.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqalar, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini (san`atkorlar

bilan uchrashuvlar, leksiya – konçert, shoirlar bilan uchrashuvlar, “Navro`z” bayrami, “Alifbe” bayramlari, “O`zbekiston vatanim manim”, “Ilhom chashmalari” ko`rik tanlovlari, bayramlarni) uyushtirish va tashkil etish musiqa o`qituvchisining zimmasiga yuklatiladi va vazifasiga kiradi. SHu bilan birga, maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi markazlari (bolalar musiqa maktablari, bolalar teatri, o`quvchilar saroylari) bilan aloqada bo`lib, iqtidorli o`quvchilarni ularga jalb etish va faoliyatini maktab hayotida qhllash ham musiqa hqituvchisining zimmasidagi vazifasidan biridir.

Yuqorida ta`kidlab o`tganidek musiqa darsi orqali talabalarning musiqiy savodxonligi tarkib topadi, musiqadan estetik zavq olishni o`rganadi va eng muhimi musiqa san`atining qadimiy ildizlari bilan tanishadi, o`zbek milliy qo`shiqchilik san`ati xaqidagi malakalarni oladi, uning ma`naviy dunyoqarashi kengayib boradi.

I BOB KOLLEJLARDA MUSIQA METODIKASI DARSI

O`QITILISHINING MAZMUNI VA METODIKASI

1.1.Musiqa darsining maqsadi va o`qitishga qo`yiladigan talablar

Barcha o`quv fanlari qatori musiqiy ta`limda ham davlat ta`lim standartlarining joriy etilishi borasida milliy musiqiy merosimizdan to`laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo`shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarida, maqom, shashmaqom, doston va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o`z aksini topadi.

Musiqa san`atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularni barkamol bo`lib etishishlarida o`ziga xos va takrorlanmas manbaa bo`lib xizmat qiladi. Azaldan SHarq, jumladan, o`zbek musika ta`lim tarbiyasi, pedagogikasi va uning mukammal uslubiyotlari ustoz – shogird an`analari misolida takomillashib borgan.

Musiqa darsining ichki tuzilishi musika tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan – vokal-xor mashg`ulotlari, musika savodi, musika tinglash, musika tahlili va adabiyoti, bolalar cholg`u asboblarida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iborat. SHuning uchun u aralash dars tipiga kiradi.

Yana musika boshqa san`at turlaridan o`zining ifoda vositalari, ya`ni «tili» bilan farq qiladi. Musika musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohanglar vositasida ifodalanadi, musiqani faqat tinglabgina idrok etiladi.

Musiqa madaniyati darslarida Vatan xaqidagi an`anaviy qo`shiqlarni o`rgatish jarayonida o`qituvchi-murabbiylarning o`zlari ham Vatanni yuraklariga jo aylab, so`ngra o`quvchilarga kerakli tushuncha va ko`nikmalarni berishlari lozim.

O`zbek xalq milliy qo`shiqchilik san`atini yuksalishida mustaqillikdan so`ng yaratilgan qo`shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach Yuqori malakali, zamonaviy tafakkur tarziga ega bo`lgan bilimli mutaxassis kadrlarni tayyorlash borasida namunali ishlar amalga oshirildi.

Yoshlar tarbiyasi va musiqa san`ati inson uchun muhim ahamiyat kasb etib bugungi kunda rivojlandi, uning qirralari jilolandi. Go`zal milliy ohanglar, ular borasida milliy an`analar tiklandi. Ulug` musiqashunos olimlarning ishlari qaytadan ko`rib chiqildi. San`atimiz darg`alari davlatimiz tomonidan yuksak mukofotlar bilan taqdirlandilar.

Musiqa darsi o`tishning zamonaviy pedagogik usullariga doir ko`plab qo`llanmalar mavjud, bunday uslublarni ilg`or musiqa muallimlarining o`zlari kashf qilganlar va ular yaxshi samara bermoqda. Xususan, “mavzu qanday bayon qilganda uning necha foizi o`quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o`zlashtiriladi?” degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o`tkazilajak tajriba yakuni “anglash piramidasi” degan nomni oladi.

Har bir qo`shiqni o`rganilar ekan qo`shiq harakteridan kelib chiqib unnig ifoda vositalari ham shunga mos bo`ladi. SHu bilan birga o`quvchi qo`shiqdagi alterasiya va dinamik belgilarini o`rganib, shular asosida qo`shiqning mazmunini ochib berishi va sof kuylashi lozim.

Qo`shiq kuylash, musiqiy idrokini kuchaytirish o`quvchining psixologik va fiziologik tuyg`ulariga ta`sir etadi, ijobiy faolligini ta`minlaydi, tovush hosil qilish, artikulyasiya va nafas organlarini faollashtiradi. Xotirasi, nutqi, diqqatini mustahkamlash bilan birga dunyoqarashini kengaytiradi.

Musiqa savodi darsining mustaqil faoliyati sifatida emas, balki barcha faoliyatlari turlari bilan bog`lab tahlil qilinishi va uni ongli idrok etilishi lozim. Musiqa savodi notalar haqida ma`lumot emas, balki notagacha bo`lgan davr, musiqa janrlari, shakllari, milliy musiqa asboblari bilan tanishtirish, ijrochi, tinglovchi, kompozitor va bastakorlar haqida va nihoyat musiqa ifodalari kuy, temp, registr, dinamika va boshqalar bilan tanishtirishni o`z ichiga oladi.

Musiqa savodi musiqa darsining bo`limlaridan biri bo`lib, musiqa ta`limida katta rol o`ynaydi. Musiqa darsini qiziqarli tashkil etishda nota savodxonligi muhim bo`lib, bola notalarning nomi va tovushlarning baland-pastligini birinchi sinfda ham tanishgani, ikkinchi sinfda esa qo`shiq kuylash

malakalari va ijrochilik turlari , yakkanavozlik, yakkaxonlik, darsda tinglanadigan kuylar xaqida chuqur tushunchalarga ega bo`lib borishlaridadir.

Dars jarayonida bolalarga – musiqa ifoda vositalariga oid qiziqarli savol-javob, kichik testlarni o`tkazish ham mumkin.Yana musiqa darsida muhim ko`rinishlardan biri cholg`u asboblari bilan o`quvchilarni muntazam ravishda tanishtirib borishdan iboratdir. Musiqiy- metodik vositalar barcha faoliyatlar amaliyotida etakchi hususiyatga ega ekanligi davlat ta`lim standartlarida ham alohida ta`kidlab o`tilgan.

SHu jihatdan olib qaraganda ta`lim jarayonini musiqiy ta`sir etuvchi bir qancha ijtimoiy psixologik omillardan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Musiqa darslarining metodik tashkillashning yana bir ta`sirli tarbiyaviy jihat, o`quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, iqtidori va irodaviy hususiyatlarining uyg`unligiga e`tibor berishdan iboratdir. Metodik yo`nalishda tashkillashda pedagog- o`qituvchilar “Ta`lim to`g`risida” Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Davlat ta`lim standartlari talablariga amal qilishlari shart.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga musiqa darslarini sifatli va samarali o`tilishida dastur asosida darsliklar, uslubiy qo`llanmalar, tavsiyanomalar, tahminiy mavzuli ish rejalari yaratilmoqda, chunki, musiqa tabiatiga ko`ra inson hissiyotiga kuchli ta`sir eta olish hususiyati bilan birga o`quvchilarni nafosat olamiga olib kirish, musiqa idrokini shakllantirish, musiqa savodxonligini oshirish va ahloqiy-g`oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir

Musiqa o`qituvchisi o`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini o`stirish va darsni yangi pedagogik texnologiyalardan unumli hamda o`rinli foydalanishi, shuningdek, maqbul shakl, usul va vositalar yordamida tashkil etishi lozim. Jumladan: texnik vositalar, komp`yuter va boshqa musiqiy cholg`ular uslublari, ko`rgazmali jihozlar, amaliy mashg`ulotlar, pedagogik va psixologik vositalar ilg`or o`qituvchining ilg`or tajribasi va mahorati hisoblanadi.

Musiqa darslarini o`quvchilarga fortepiano va rubob cholg`u asboblardan foydalangan holda o`tiladi. Bir cholg`u sozida ijro etiladigan kuy yakkanavozlik deyilib, buni o`quvchilarga amaliy tarzda ko`rsatganimiz ma`qul.

SHundan so`ng ikki o`quvchini doska oldiga chaqirib, birining qo`liga rubob ikkinchisining qo`liga doira ushlatib, ikki cholg`u sozida birgalikda kuy ijro etilishi jo`rnavozlik usuli ekani haqida tushuntiramiz.

SHunday qilib darsni puxta tayyorgarlik yuksak mahorat bilan tashkil etishimiz orqali o`quvchilar orasidan faolligi, ziyrakligi va iqtidorliligi bilan boshqa tengdoshlaridan farq qiluvchi o`quvchilarni yaqqol faxmlab olishimiz mumkin.

Musiqqa darslarida jamoa (xor) bo`lib kuylanganda albatta musiqa o`qituvchisi qo`l harakatlari bilan dirijyorlik qiladi va xorni shunday boshqarib boradi.

Ashula turli o`lchovda (sanoqda) bo`lishiga qarab dirijyor qo`l harakatlari ham turlicha bo`ladi. Masalan, "bir- ikki" deb sanaladigan ikki chorakli o`lchovdagi qo`shiqqa dirijyor qo`llarini pastga va Yuqoriga qarab harakatlantiradi. Albatta shu kabi dars jarayonlari ikkinchi sinf o`quvchilari uchun g`oyatda qiziqarli bo`lganligi, ularni musiqa faniga bo`lgan qiziqishlari hamda izlanishlariga olib keladi. Odatda qo`shiqlar ham ikki xil jaranglaydi, biri quvnoq, sho`x jaranglasa, boshqasi mayus va mungli eshitiladi. Quvnoq jaranglagan kuylar major tuzilmasiga kirib, mungli eshitilgan kuylar esa minor tuzilmasiga kiradi.

O`qituvchi o`quvchilarga bilim beradi, uning o`zlashtirish jarayoniga raxbarlik qiladi, o`quvchilarning harakatlarini nazorat kilib boradi. Bu belgilar darsning muayyan darajada tuzilishini va izchilligini ta`minlaydi. Tushuntirishga kirishishdan oldin o`quvchilar yangi materiallarni o`zlashtirishiga kanchalik tayyor ekanligini, qanday bilimlarga ega ekanligini aniqlash kerak. Darsda o`qitish mazkur guruxdagi o`quvchilarning umumiy psixologik xususiyatlariga tayangan xolda olib boriladi.

Tushuntirish hamma o`quvchilar uchun bir vaqtning o`zida beriladi va har bir o`quvchi o`qituvchi nima haqda gapirsa, hammasini o`zlashtirib olish imkoniyatiga egadir. Musiqqa idrokini shakllantirishda ifoda vositalarining muhimligi qo`shiqni sof ohangda kuylash bilan harakterlidir. Qo`shiqdagi unli

tovushlarni cho`zibroq, undosh tovushli bo`g`inlarni esa tez va burro talaffuz etish tavsiya etiladi.

Bunday ifoda vositalari ikkinchi sinf o`quvchilari bilan dars va qo`shimcha mashg`ulotlar o`tkazish jarayonida qo`llanilsa dars samaradorligiga erishiladi. Musiqa tinglash musiqa darsining etakchi faoliyat turi sifatida muhim o`rin tutadi. Chunki o`quvchi barcha musiqa faoliyatlarini avval eshitib, so`ng idrok etadi hamda o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni o`z vaqtida bajara oladi. Dars jarayonida o`qituvchi musiqa tinglashda jonli ijrodan foydalansa o`quvchiga yanada qiziqarliroq bo`ladi. Musiqa tinglash faoliyatini texnik vositalar orqali amalga oshirish bilan o`quvchining musiqiy dunyoqarashi kengayadi.

Bugungi kun musiqa o`qituvchisining eng asosiy vazifalaridan biri axborot texnologiyalariga tayanish va undan unumli foydalanishni chuqur idrok etishidir. O`qituvchilarning bo`sh vaqtlari va darsga tayyorgarlik jarayonlarida internet tizimi va axborot texnologiyalarining zamonaviy manbalari juda qo`l keladi.

Ayniqsa, bolalarda musiqa tinglash qoidalarini asosida ularning diqqatlarini jamlashda kompyuter texnologiyasi qiziqarli tarzda kechadi. Dars jarayonida, ayniqsa o`zbek xalqini tarannum etuvchi qo`shiqlarni zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tinglatilsa va o`rgatib borilsa bolalarning texnologik qarashlari shakllanib boradi. SHu o`rinda zamonaviy texnologiyani ko`rgazmali tarkibda olib borish ham o`sib kelayotgan bolalarning fikrini boyitadi, nutqini ravon etadi, tasvirga qarab so`zlashga o`rganadi.

1.2. Darsda musiqiy faoliyat turlaridan oqilona foydalanish samarasi

Bizga ma'lumki, musiqa darsida musiqiy faoliyat turlari eng muhim vazifa hisoblanib, musiqa o'qituvchisi dars jarayonida bunday faoliyat turlaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishi zarur. Musiqiy faoliyat turlari haqida so'z borar ekan, ular qanday nomlar bilan atalishi haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Musiqa darsidagi faoliyat turlari quyidagilarni tashkil etadi:

- musiqa savodi;
- musiqa tinglash;
- jamoa bo'lib kuylash;
- musiqali harakat;
- cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish;
- musiqa ijodkorligi.

Har bir qo'shiqni o'rganilar ekan qo'shiq harakteridan kelib chiqib uning ifoda vositalari ham shunga mos bo'ladi. SHu bilan birga o'quvchi qo'shiqdagi al'teratsiya va dinamik belgilarini o'rganib, shular asosida qo'shiqning mazmunini ochib berishi va sof kuylashi lozim.

Musiqa o'qituvchisi darsda eng muhim faoliyat turini tashkil etuvchi jamoa bo'lib qo'shiq o'rgatish jaryonida o'zaro hurmat ko'nikmalarini, odob-axloq qoidalarini, oddiy xalqimizning xalqchilligidan olib, Yosh avlodga etkazishimiz lozim. Hozirgi zamon ayrim Yoshlarimizning tarbiyasi ayanchli xolatda. Xatto zo'r iqtidor egasi bo'la turib, nojo'ya yo'llarga kirib ketayotgan Yoshlarimiz ham uchramoqda. SHuning uchun Yoshlarni bo'sh vaqtlarini ko'ngilli ta'minlashimiz, o'zaro bahs-munozarali badiiy kechalarni o'tkazishimiz lozim.

Qo'shiq kuylash, musiqiy idrokini kuchaytirish o'quvchining psixologik va fiziologik tuyg'ulariga ta'sir etadi, ijobiy faolligini ta'minlaydi, tovush hosil qilish, artikulyatsiya va nafas organlarini faollashtiradi. Xotirasi, nutqi, diqqatini mustahkamlash bilan birga dunyoqarashini kengaytiradi.

Musiqa idrokini shakllantirishda ifoda vositalarining muhimligi qo'shiqni sof ohangda kuylash bilan harakterlidir. Qo'shiqdagi unli tovushlarni cho'zibroq, undosh tovushli bo'g'inlarni esa tez va burro talaffuz etish tavsiya

etiladi. Bunday ifoda vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan dars va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida qo'llanilsa dars samaradorligiga erishiladi. Musiqa tinglash musiqa darsining etakchi faoliyat turi sifatida muhim o'rin tutadi.

Musiqa tinglash dars jarayonida ikki holatda amalga oshiriladi, birinchisi ma'lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy tasniflari dars mavzuiga doir oddiy musiqiy –pedagogik tahlil qilinadi. Eshitish orqali asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida ma'lum bilimlarga ega bo'linadi.

Ikkinchidan musiqa asarlari avval tinglanib, so'ng u yoki bu faoliyati ko'proq kuylash jarayoni orqali o'rganiladi, uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda o'rganiladi. Masalan, o'rganiladigan qo'shiq avval tinglanadi, muhokama etiladi, mazmuni va maqsadi o'rganiladi, so'ngra bir- ikki marta tinglanadi. Ko'pincha asar bir faoliyat turlari bilan hamohang ravishda tinglanadi, bu integral, ya'ni aralash tipga aytiladi. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ham musiqa tinglatadi, ham qo'shiq kuylatadi, ham muhokama qiladi, ham musiqali harakatlar bajartiradi.

Chunki o'quvchi barcha musiqa faoliyatlarini avval eshitib, so'ng idrok etadi hamda o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni o'z vaqtida bajara oladi. Dars jarayonida o'qituvchi musiqa tinglashda jonli ijrodan foydalansa o'quvchiga Yanada qiziqarliroq bo'ladi. Musiqa tinglash faoliyatini texnik vositalar orqali amalga oshirish bilan o'quvchining musiqiy dunyoqarashi kengayadi.

Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqa o'quv qobiliyati hamda ijrochining malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir, shuning uchun musiqa o'qituvchilari bolalar ijrochiligida Yuqoridagi vazifalarni to'g'ri uddalashlari uchun bor imkoniyatlarini ishga solib mehnat qilishlari lozim bo'ladi.

Musiqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muximdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti qo'llanilmasin, uning

amaliyotida foydalanilayotgan asar o`rganiladi va uning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochilari va hakoza) xaqida yangi tushunchalar hosil bo`ladi.

SHu bois, musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo`libgina qolmay, balki o`quvchilarning umumiy musiqaviy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim-tushunchalar majmuasini ya`ni musiqa shakllari, janrlari, xalq, bastakorlik musiqasi, ularning farqlari bo`lib milliy musiqa mahalliy uslublari, mumtoz musiqa, nota savodi va boshqalarni singdirib borishdan iborat.

Musiqa savodi darsining mustaqil faoliyati sifatida emas, balki barcha faoliyatlari turlari bilan bog`lab tahlil qilinishi va uni ongli idrok etilishi lozim. Musiqa savodi notalar haqida ma`lumot emas, balki notagacha bo`lgan davr, musiqa janrlari, shakllari, milliy musiqa asboblari bilan tanishtirish, ijrochi, tinglovchi, kompozitor va bastakorlar haqida va nihoyat musiqa ifodalari kuy, temp, registr, dinamika va boshqalar bilan tanishtirishni o`z ichiga oladi.

Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar musiqa tinglash, qo`shiq kuylash, cholg`u asboblari jo`r bo`lish kabi harakatlarni bajarish bilan birga albatta ritmik harakatlarni to`laqonli ravishda bajarishlari shart. Bu bilan o`quvchining tinglash, diqqatni bir joyga to`plash, musiqa ohangiga mos harakatlar bajarish, chapaklar asosida ritmga jo`r bo`lish orqali qobiliyatlari rivojlanadi.

Darsning samaradorligiga erishish, kasb mahoratini to`liq bajarishda o`qituvchi-pedagoglar DTS talablari hamda yangi pedagogik texnologiya asosida istagan faoliyatlar orqali ko`zlagan maqsadiga erishishi mumkin. Bizga ma`lumki, musiqa tarbiyasi jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o`zbek musiqa madaniyati va xalq musiqasining nodir namunalari orqali Yosh avlodni tarbiyalashdek mas`uliyatli vazifa amalga oshiriladi.

Bugun shunday darslar tashkil etilsinki, pedagog faol va tashabbuskor bo`lsin, uning shogirdlari esa mustaqil va erkin fikrlay oladigan Yoshlar bo`lib etishsinlar.

Bundan ko`rinib turibdiki, musiqa darsida asosan musiqiy savodxonlikka e`tibor berish bilan birga tarbiyaviy jarayonlar hamkorlikda olib borilishi shart bo`ladi. Masalan, cholg`u asboblari bilan tanishish yoki uni chalishni o`rgatishga bo`lgan holatda qanday tarbiyaviy jarayon ketishi mumkin, o`qituvchi bolaga musiqa asbobini qanday ushlab, qanday o`tirish mashqi, musiqa asbobi va o`qituvchining harakatlarini hurmat qilish qoidalari orqali ham bola tarbiya topishi mumkin. Yoki bo`lmasa musiqa tinglash va musiqiy savodxonlik qoidalari o`rgatilayotgan vaqtni olaylik, tarbiya ko`rgan bolagina musiqani to`g`ri va to`liq bajara oladi.

II BOB. KOLLEJLARDA MUSIQA METODIKASIGA OID ZAMONAVIY TALABLARNI JORIY ETISH

2.1. Musiqa darsiga qo'yilgan zamonaviy pedagogik talablar.

Barcha fanlar qatori musiqiy ta'limda ham Davlat Ta'lim Standartlari yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'la qonli foydalanish imkoniyatini beradi. Pedagogik texnologiya asosida o'qitishni ayrim mavzular yoki boblar bo'yicha olib borish mumkin. Ta'lim – tarbiya sifatini kasb ta'limini rivojlantirishda o'qituvchi pedagoglar o'quvchi- Yoshlarni barkamollikka erishishlarida o'z ijodiy qobiliyatlarini sarflab, ularni bilimli-o'quvli etib tarbiyalashlari lozim va yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanib dars tashkil etishlari lozim.

Yangi dasturlarni o'ziga hos Yana hususiyatli tomoni shundan iboratki, musiqa madaniyati fanini asosi bo'lgan musiqa savodhonligini tarkib toptirish lozim bo'lgan, qator musiqiy qonuniyatlar jumladan, musiqa nutqi, musiqa ifoda vositalari, musiqa shakllri, musiqaning tuzulishi va rivojlanishi, musiqaning zamonaaiyligi kabilar chuqur, mukammal o'rgatilishi kerak. Demak, yangi dastur mazmunida dars o'tish uchun, musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy – nazariy bilimlarini takomillashtirish lozim. Chunki, mamlakatimizda Yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini, insonni ma'naviy, ma'rifatli qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo'yilgan katta mas'uliyatni musiqa o'qituvchisining oldiga vazifa qilib qo'yilmoqda.

Kollejlarda musiqa o'qituvchisi yangi pedagogik texnologiyaga yondoshgan holda o'z darslarini zamonaviy shaklda tashkil etishi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ma'lumki, musiqa darsi boshqa fanlardan farqli o'laroq, qiziqarli tarzda kechadi, chunki darsda qo'shiq aytib, xatto raqs harakatlarini bajarish mumkin. Ko'p vaqtlarda o'qituvchi darsni o'yin shaklida davom ettiradi. O'yinlar: guruh a'zolarini birlashtirish, hamfikir qilish, bir-birini qo'llab-quvvatlashga o'rgatish maqsadida tashkil qilinadi.

O`yinlar:

1. Mashg`ulot mavzusiga mos bo`lishi.
2. Guruh a`zolarining Yoshi, bir-birini bilish darajasi interfaol metodlar asosida o`qitish tajribasini e`tiborga olinishi.
3. Xis-tuyg`ular, tafakkur va psixomotor xususiyatlarini faollashtirishga xizmat qilishi kerak.

O`yinlarni tashkil qilish qoidolari quyidagicha:

O`yinlar 10 minutdan oshmasligi kerak. O`yinda guruhning barcha a`zolari ishtirok etishi lozim. Ayniqsa, bu o`yin o`quvchilarni vokal ansambl, vokal qo`shiqchilik, xor bo`lib kuylashda ko`pchilik birgalikda ijro etishlarida hamkorlikda ishlashga tavsiya berish, izohlash, eng yaxshi echimlarni tavsiya etishlari mumkin.

“O`zaro ta`lim” o`quvchilarga o`zini o`qituvchi yoki ekspert o`rniga qo`yish imkoniyati beriladi. U matn, qo`shiq ustida mustaqil ishlash va boshqalarga tushintirib berish kerak.

“O`zaro savol-javob” o`quvchilar o`zining mavzu bo`yicha bir-birlariga savol beradilar. Savollar o`qituvchilarga ham berilishi mumkin yoki aksincha.

“Muhokama bildirish” Gurux a`zolari muhokama qilinayotgan muammoga o`z munosabatlarini bildiradilar va shunga ko`ra ikki yoki uch guruxga bo`linadilar. Guruxlar munozaraga kirishib ketadilar. Kim o`z fikrini o`zgartirsa, boshqa guruxga o`tishi mumkin. Bu o`yinlardan musiqa darslarida foydalanilsa, o`quvchilarning darsga qiziqishi, ishtiyoqi, badiiy ijodkorligi kuchayadi. Darsning samaradorligi oshadi.

SHuningdek, aqliy xujum, hamkorlikda o`qish, ta`lim jarayonida o`qituvchining savollari, estetik kabi interaktiv usullardan foydalanish ham Yuqori samara beradi.

Demak o`quvchi musiqa darslarida o`quvchilarga vokal-xor malakalarini uyg`unlashtirib o`qitishda pedagogik texnologiyaning barcha turlaridan oqilona va mavzuga moslab foydalanish mumkin. Bu esa o`quvchida nafaqat mustahkam

bilim olish, balki aniq va ravshan darslarni qabul qilishlari va xor-vokal qo`shiqlarini buzmasdan to`g`ri ijro etishlari va yodda saqlab qolishni ta`minlaydi. Uning shaxs sifatida o`qitish tizimini tashkil etadi.

Musiqqa darslarida ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagi muammolarni hal etish lozim:

- O`quvchilarni mustaqil ta`lim olishlari uchun alohida sharoitlar yaratish.
- Darslarda o`quvchilarning faolligini o`rttirish, buning uchun ko`proq interaktiv uslublardan foydalanish.
- Ta`lim jarayonida har bir o`quvchiga musiqa ta`limining aniq maqsadlarini tushuntirib berish va shu yo`l bilan ularning shu maqsadga ongli ravishda intilishlarini ta`minlash.
- Ta`lim jarayonida noan`anaviy dars shakllaridan musobaqa, konkurs, amaliy o`yinlar va xokozolardan samarali foidalanish.
- Dars jarayonida ukuvchini o`qitish emas, ko`proq ijodiy yondoshishga o`rgatish.
- Ilg`or pedagog texnologiyalar huddi ishlab chiqarishda qo`llanilayotgan texnologiyalar kabi, barcha mutaxassislar tomonidan takrorlanuvchan va pirovardida bir-xil natijaga erishishni kafolatlaydigan uslub bo`lmog`i kerak.

O`quv-tarbiyaviy jarayoni ilg`or pedagog texnologiyalar bilan ta`minlash vazifasi ham o`quvchilardan chinakam ijodkorlikni talab qiladi. O`qituvchi an`anaviy dars usullaridan chekinib, yangi-yangi usullardan foydalansa maqsadga muvofiqdir.

O`qitishning yangi usullardan foydalanish o`qituvchiga

- o`quvchilar tafakkurini faollashtirish;
- ta`lim maqsadini belgilash;
- munozarat tashkil etish;
- ta`lim motivatsiyasini o`rttirish;
- o`zgarishlarni rag`batlantirish;
- turli qarashlar bilan tanishish;

- o`quvchilarni savol berishga o`rgatish;
- o`z fikrlarini ifodalay olishga o`rgatish;
- butun e`tiborni badiiiy ijodkorlikni rivojlantirish imkonini beradi.

Bu usullar o`qituvchidan katta mahorat va ishtiyoq talab etadi. Sir emaski bizning darslarimiz ko`pchilik hollarda “Bir aktiyor teatri”ga aylanib qolgan. O`qituvchi dars davomida mavzuni tinimsiz tushuntiradi. O`quvchi esa tomoshabin bo`lib o`tiraveradi, darsda o`quvchi ishtiroki sust bo`ladi. Haqiqiy dars bu – o`qituvchi va o`quvchi xamkorligidagi, o`zaro fikr almashuvi bo`lmog`i kerak.

Ba`zan o`quvchilar darsga nomigagina kirishadi. Qotib qolgan eski qolipdagi dars uslubi o`quvchilarning o`z imkoniyatlarini ijodiy fikrlashning namoyon etishga halaqit bermoqda, mana shu muammolarni hal qilishda o`qituvchi zamon bilan hamnafas bo`lmog`i va o`qitishning zamonaviy metodlari haqida tushunchaga ega bo`lmog`i kerak.

Masalan, O`qitishning interaktiv metodi, o`quvchilarning qobiliyati, yaratuvchanlik qobiliyati, yangilik yaratish qobiliyatining qay darajada shakllanganligi bilan belgilanadi.

“Interaktiv” so`zi inglizcha “Interat” so`zidan olingan bo`lib, “Inter” – birgalikda, o`zaro, “akt” esa harakat ma`nosini bildiradi.

O`zaro birgalikdagi harakat, faoliyat yoki suhbat, dialog tartibida bo`lishini bildiradi. Interaktiv o`qitish metodi – bilish faoliyatini maxsus shaklda tashkil etish demakdir. Bu metod ta`lim jarayonini aniq oldindan belgilangan – maqsadi, ular detallashtirilgan bo`linishini taqozo etadi.

SHunday maqsadlardan biri - sharoitini qulay va yoqimli bo`lishini ta`minlash, o`quvchi darsda to`la o`zlashtirish imkoniyati etarli ekanligini xis qilishi zarur, shunda ta`lim jarayoni maxsuli faoliyatga aylanadi.

Interaktiv o`qitish metodida o`quvchilarning barchasi bilish jarayonida faol qatnashadilar, ular o`zlari bilan o`ylagan ma`lumotlariga tayanishlari, ulardan foydalanishlari mumkinligini tushunadilar va moslashadilar.

Birgalikda aqliy bilish, izlanish faoliyatida har bir o`quvchi shaxsan o`zi ishtirok etib, o`z xissasini qo`shadi. Bilimlari, g`oyalari, qarashlari, nuqtai-nazarlari, faoliyat ko`rsatish usullari bilan o`quvchilar o`zaro fikr, tajriba almashadilar. O`zaro fikrlashish, tajriba almashish jarayoni samimiy, sidqidillik muhitida bo`lib, bu xolat nafaqat yangi bilim olishni ta`minlaydi, bilim faoliyatini oshiradi.

Bu metod hammaning, har bir shaxsning o`ziga xos qarashi, fikri, xulosasi borligini, xurmat qilishni ta`kidlaydi. Bunday tipdagi darslarda o`qituvchi va o`quvchi yaqindan tanishadi, ko`proq ulardan so`rash va baholash imkoniyati bilan birga so`rash va baholashning yangi shakllari paydo bo`ladi.

Kollejlarda musiqa darslarida vokal-xor samaradorligini o`stirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali turlaridan biri hisoblangan tabaqalashtirilgan ta`lim muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma`lumki, sinfdagi barcha o`quvchilarning qobiliyatlari, fanga qiziqishlari psixologik va estetik jihatdan turlicha bo`lganligi sababli berilayotgan bilimlar va shu asosda tashkil etilayotgan metodika barcha o`quvchilarga bir xil ta`sir ko`rsatmaydi. Natijada sinfdagi barcha o`quvchilar o`quv materiallarini bir xil o`zlashtirmaydilar. Bunday o`quvchilarga tabaqalashtirilgan tizim bilan yondoshish muhimdir.

SHunday qilib musiqa o`qituvchisi o`zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ustida, o`z malakasi, saviyasini oshirish ustida doimo ishlashi kerak. Bunga bu borada o`qituvchilar malakasini oshirish institutlari ancha yordam beradi. Bunday institutda ular fan va texnika sohasidagi yutuqlar, ilg`or pedagogik tajribalar bilan tanishadilar hamda olgan bilim va malakalarini musiqa darslarida qo`llasalar maqsadga muvofiqdir.

Milliy madaniy merosimiz juda ko`hna va boy ekanligi barchaga ma`lum. Milliy qadriyatimizning sarchashmalari juda olis davrlarga borib taqalishi jahon miqiyosida ham tan olingan. Ana shu merosning kattagina qismini musiqiy meros durdonalari, ya`ni qo`shiqchilik san`ati egallaydi. O`zbek milliy musiqa

san`ati an`analarining paydo bo`lishi va rivojlanishini milliy madaniyatning yuzaga kelishidagi eng qadimiy davrlarda ko`rish mumkin.

Hozirda milliy san`atimiz, shuningdek musiqa madaniyatining tub mohiyatiga alohida e`tiborni qaratish lozim:

1. Musiqa madaniyatining tarixi va taraqqiyoti bosqichlari haqidagi ma`lumotlarni o`z ichiga olgan nodir tarixiy, adabiy va ilmiy manbalarni chuqur o`rganish, tahlil etish.
2. Kuylash ijrochiligining nazariy asoslari, o`ziga xos xususiyatlari, uning badiiyligini o`zlashtirish.

Musiqa madaniyatini yuksaltirishda san`atimiz tarixida o`z izlarini qoldirgan bastakorlar hayoti va ijodini o`rganib, ularning asarlaridan foydalanishni yo`lga qo`yish hamda unga amal qilishi - bu shart. Bunday sifatlar nutq madaniyatimizda, kiyinishimizda, o`zimizni tutishimizda, ya`ni o`quvchilarga bo`lgan muloqotimizda mujassam bo`lishi zarur.

Ta`lim muassasalarida o`tiladigan darslarning sifat va samaradorligini orttirishda milliy ta`lim va tarbiya tizimi muhim rol o`ynaydi. Albatta, bu muhim psixologik kechinma, avvalam bor, shu millatga mansub har bir shaxsning, qatlamlarning hal etishi bilan yuzaga keladi, shuningdek Oliy ta`lim muassasalari vakillarining ham.

Musiqa san`atining o`ziga xos murakkab jarayonlari mavjud. Musiqa san`atining sirlarini to`la anglab etmagan boshqa kasb egasi qanday qilib musiqa madaniyatining tarixi, taraqqiyot bosqichlari, ilmiy va amaliy manbalarini taxlil qilgani xolda o`quvchiga etkaza oladi?

Bizga ma`lumki, kuylash, cholg`u ijrochiligining o`ziga xos talablari borki, buni faqatgina maxsus musiqa ma`lumotiga ega shaxsgina amalga oshira oladi! Bu ta`lim islohotlarining talabidir. SHuning uchun musiqa darsining sifatli tashkil etilishida turli metodlardan foydalanish lozim. Masalan, darsni hamkorlikda o`qitish metodi orqali o`tishda nimalarga e`tibor berish zarurligini ta`kidlab o`tmoqchiman.

1. Hamkorlikda o`qitish metodi: Bu – uning asosiy g`oyasi o`quv

topshiriqlarini nafaqat birgalikda balki hamkorlikda o`qitish, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o`qitish har bir o`quvchining kundalik qizg`in aqliy mehnatga ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o`rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o`quvchidan shuxsiy, qadr-qimmat tuyg`usini vujudga keltirish o`z kuchi va qobiliyatiga bo`lgan ishonchni mustahkamlash, taxsil olishda ma`suliyat xissini shakllantirishni ko`zda tutadi.

2. Guruhlarga bo`lib o`qitish texnologiyasi: O`quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko`rsatma berish etarli emas. Boshlang`ich sinf o`quvchilari o`rtasidagi tom ma`nodagi hamkorlik, har bir o`quvchining qo`lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish xissi, qulay ijtimoiy psixologik muxit vujudga kelishi zarur.

3. Hamkorlikda o`qitishning “Zigzag” yoki “Arra” metodini tashkil etish.

Mazkur metodda boshlang`ich sinfda o`quvchilari 6-8 ta o`quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o`rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o`quvchilar bajarishi lozim bo`lgan o`quv topshiriqlarini tuziladi. Bu metodlardan tashqari hamkorlikda o`qitishning “Birgalikda o`qiymiz”, “Kichik guruhlarda izlanishni tashkil etish metodi” kabi usullari ham mavjud. Bu metodlardan har bir musiqa darslarida o`quvchilarni faolligini oshirish maqsadida qo`llash mumkin. Har bir guruhga alohida topshiriq berib uni nazorat qilish, o`qituvchi va o`quvchilar faolligini oshiradi.

Har berilgan vazifalar o`z ichiga ma`lum maqsadlarni oladi, u bolaligini, bilimlarini Yanada mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

Tavsiya etilayotgan ta`lim mazmuni o`rtacha o`zlashtiruvchi bolalarga mo`ljallab tayyorlanganligi sababli u yaxshi o`zlashtiruvchi bolalarga ma`lum miqdorda engil va bo`sh o`zlashtiruvchi bolalarga biroz og`irlik qilib, ikkala tarafdagi bolalarda ham qiziqish uyg`otadi.

Bunday sharoitda musiqa fanining oldiga qo`ygan vazifalarini talab darajasida amalga oshirish qiyin kechadi.

Kollejlarda musiqa darslarida vokal-xor samaradorligini o`stirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali turlaridan biri hisoblangan tabaqalashtirilgan ta`lim muhim ahamiyat kasb etadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma`naviy- ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog`liq bo`lgan uzluksiz ta`lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs - fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy modeli”ni ro`yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta`lim va kasb hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va puxta o`zlashtirish uchun ijtimoiy, huquqiy, siyosiy, psixologik, pedagogik va boshlovchi tarzidagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o`z javobgarligini his eta oladigan Yoshlarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Maktabda musiqa darsida o`quvchi Yoshlarning bilim va ko`nikmalarini shakllantirishda, ularning barkamolligiga erishishda kasb-hunar rivojiga erishishda o`qituvchi-pedagoglar Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqarganlari holda ta`limga zamonaviy dasturlarni olib kirishlari lozim. O`quvchini qay darajada ko`proq bilim olishga, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga jalb etilsa, dars samaradorligiga, Yoshlar tarbiyasini yo`lga qo`yilishiga erishiladi. Buning uchun darsdan tashqari mashg`ulotlarni, to`garaklar faoliyatini chuqur o`zlashtirib, o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini ko`ngilli tashkil etishga erishish lozim.

Dars davomida tarbiyaviy qo`shiqlarni tinglash orqali o`quvchilarning musiqa idroki kuchayadi, mustaqil fikrlaydi hamda tinglangan ohanglar orqali ularning taqqoslash qobiliyatlari rivojlanadi.

O`quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o`ta zo`riqtirmaslik uchun sodda va qiziqarli “metod”lardan foydalanish lozim. Dars jarayonida, ayniqsa o`zbek xalqini tarannum etuvchi qo`shiqlarni o`rgatish orqali o`zbek xalqining urf-odatlarini, liboslari, o`zbek taomlari haqida fikr yuritib, Yoshlar ongida milliy mentalitet g`oyalari shakllantiriladi. **Mentalitet** so`zi lotincha “ment” axloq-odob

ma`nolarini anglatadi. Sinfidan tashqari o`tkaziladigan barcha tadbirlarning mohiyatida **tarbiya** yotadi.

O`zbekistonning “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuniga ko`ra to`qqiz yillik umumiy o`rta ta`limi joriy etilgandan buyon, ta`limning mintaqaviy hususiyatlarini hisobga olgan holda musiqa fani bo`yicha konseptsiyasi ishlab chiqildi. Musiqa ta`lim – tarbiyasining Konseptsiyasi loyihasida musiqa ta`limining milliy va ilmiy asoslari mazmuni, tuzilib, tabaqalanishi musiqa o`qituvchisiga zamonaviy talablar va ta`limning ilmiy-uslubiy, yangi pedagogik texnologiyalari joriy etildi.

Bugungi o`zimizni anglash, o`z taqdirimiz va farzandlarimiz imkoniyatiga ega bo`lgan mustaqil O`zbekistonda milliy madaniyatimizni o`ziga xosligini tiklash, kollejlarda Yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish hamda hozirgi kunimizni to`laroq idrok etishimiz uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmoqlik hisoblanadi. Chunki har bir yangilik tarixiy bog`lanish orqali amalga oshiriladi.

Kollejlarda o`quvchi Yoshlarning bilim va ko`nikmalarini shakllantirishda, ularning barkamolligiga erishishda kasb-hunar rivojiga erishishda o`qituvchi-pedagoglar Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqarganlari holda ta`limga zamonaviy dasturlarni olib kirishlari lozim. O`quvchini qay darajada ko`proq bilim olishga, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga jalb etilsa, dars samaradorligiga, Yoshlar tarbiyasini yo`lga qo`yilishiga erishiladi.

Buning uchun darsdan tashqari mashg`ulotlarni, to`garaklar faoliyatini chuqur o`zlashtirib, o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini ko`ngilli tashkil etishga erishish lozim.

Musiqa darsini reja asosida tashkil etishni ikki xil ma`noda qabul qilish mumkin. Bular, eng avvalo darsni Davlat Ta`lim Standartidagi talablar asosida Xalq ta`limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan o`quv rejasiga hamda o`qituvchining 45 daqiqa mobaynida bajarishi zarur bo`lgan vazifalarni rejalashtirib olinishi ham tushuniladi.

Vaqt - dars samarasida juda muhim elementdir, agar o`qituvchi darsda vaqtdan unumli foydalana bilsa, ya`ni reja asosida aralash- quralash qilmay, dars

ishlanmani zamon talablari asosida yozib, unga amal qilsa u yaxshi natijaga erishadi.

Darsni reja asosida tashkil etishda Yana o`quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o`ta zo`riqtirmaslik uchun sodda va qiziqarli “metod”lardan foydalanish lozim. Dars jarayonida, ayniqsa o`zbek xalqini tarannum etuvchi qo`shiqlarni o`rgatish orqali o`zbek xalqining urf-odatlarini, liboslari, o`zbek taomlari haqida fikr yuritiladi.

Musiqi ta`limi ham muayyan tashkiliy shakllarda amalga oshiriladiki, biz ularni dars o`tish, ekskursiya, amaliy va laboratoriya mashxulotlari, lekuiya, seminar, diktant, nazorat testi va boshqalar tarzida tushunamiz. Gurux usulida va yakka tartibda o`qitish tarixan tarkib topgan va rivojlanmokda.

Har qanday xolatda ham o`qituvchi o`quvchilarga bilim berish bilan birga tarbiyalab boradi, uni o`zlashtirishi jarayoniga raxbarlik qiladi, o`quvchilarning harakatlarini tekshirib nazorat qilib boradi.

Mamlakatimiz keyingi yo`llarda ta`lim-tarbiya sohasini zamonaviy talablar darajasida ko`tarish borasida keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, ta`limni isloh qilish davlatimiz siyosatining ustivor sohasi deb e`lon qilingan. Bu avvalo, tayyorlanayotgan pedagogik kadrlarning bilim va malakasiga, dunyoqarashi va yuksak ma`naviyatiga ham bog`liqdir. Bu bilan ularning musiqa darslarini sifatli tarzda o`tishlariga omil bo`ladi.

Musiqi darsining sarmazmun va qiziqarli tashkil etish o`qituvchidan pedagogik mahorat, ijodiy faollik hamda professionallik talab etadi. O`qituvchilar musiqa darsida hamda sinfdan tashqari tadbirlarda musiqiy saboqning berishda yangi pedagogik texnologiyani sirlarini qo`llashlari va tarbiyaviy ishlarni ham olib borishlari lozim.

Darsni reja asosida tashkil etishda o`qituvchiga qo`yilgan talablardan eng muhimi mustaqil tarzda bajariladigan topshiriqlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ham o`qituvchiga ham o`quvchiga qiziqarli tarzda kechadi, chunki, bunday darslarda o`qituvchi bemalol DVD, DSD va kompyuterda foydalangan holda darsni olib boradi.

O`quvchi esa bundan zavq olgan holda darsda ishtirok etadi. Bundan tashqari o`qituvchi ba`zi musiqiy elementlarni kompyuterda o`zlashtirishni o`quvchiga topshiriq sifatida berganda bola jonu-dili bilan ushbu vazifani amalga oshiradi .

Ushbu holatda ikkita jarayon, ya`ni, talabaning kompyuterni to`la-to`kis o`zlashtirishi hamda darsga texnik holatda yondoshishi kuzatiladi.

O`quvchi mavzu yuzasidan o`rtoqlari, muallim bilan o`z muloqotga kirishishi, amaliy mashg`ulotlarda qatnashishi, darsdan olgan bilimlarini gapirib bera olishi kerak. Ana shunda olingan bilim mustahkam bo`ladi . Turli uslublarni o`rganib, taqqoslab, hamkasblar bilan fikrlashib , har bir ustoz o`z uslubini yarata oladi .

Qo`shiq kuylash, musiqiy idrokini kuchaytirish o`quvchining psixologik va fiziologik tuyg`ulariga ta`sir etadi, ijobiy faolligini ta`minlaydi, tovush hosil qilish, artikulyasiya va nafas organlarini faollashtiradi. Xotirasi, nutqi, diqqatini mustahkamlash bilan birga dunyoqarashini kengaytiradi.

Musiqqa madaniyati darsida sinf o`quvchilariga ta`lim- tarbiya berayotgan ustoz va murabbiylar ko`proq qiyinchilikni o`z gardanlariga oladilar, boisi dars berish bilan birga ular o`quvchilarga tarbiyani ham mukammal tarzda tarkib toptirishlari zarur bo`ladi.. SHuning uchun o`quvchi Yoshlarga dars berish jarayonimizda o`ta sergaklik va tashabbuskorlik bilan ishga kirishishimiz lozim. Bir kichkina xato ham kelgusida pand berishi mumkin.

Jumladan, boshlang`ich sinflarda musiqqa darsini tashkil etish orqali o`quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirishda eng avvalo qo`shiqdan, kuydan zavq olishni o`rgatish muhimdir. O`qituvchi ularga dars berishda, o`quvchilarda estetik tarbiyani uyg`otishda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim bolalarda musiqani sevish, unga havas va qiziqish uyg`otish,vokal-xor malakalari hamda qo`shiq kuylashning boshlang`ich saboqlarini berib borish, o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o`stirish,nutq madaniyatiga rioya etish,o`quvchilarning badiiy didlarini tarbiyalash (kiyinish madaniyati, gavydani tik tutish holatlari).

Ma'lumki, musiqa madaniyati darslarini har bir o'quvchi o'zicha mehr va qiziqish orqali kuzatadi. O'quvchilarni musiqiy tarbiyalashda ularning musiqiy ijrosini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Musiqa ijroni barcha faoliyatlar amaliyotida etakchi xususiyatga ega ekanligi davlat ta'limi standartida ham alohida ko'rsatib o'tilgan. SHu jihatdan olib qaralganda, ta'lim jarayonini musiqiy idrok etish shakllanishiga ta'sir etuvchi bir qancha omillardan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Musiqali harakatlar, cholg'uchilik ijrochilik faoliyatini amalga oshirishda o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Dasturda musiqa tinglash va uni idrok etish kuylash uchun asarlar talab darajasidan ortiq berilgan. Ulardan tashqari o'zbek milliy kuy-qo'shiqlarini o'rganib borish ham Davlat Ta'lim Standarti talabidir.

Nota savodi, cholg'uchilik, raqs va harakatlar, shuningdek, musiqa ijodkorligi faoliyati mazmunida tavsif etilgan asarlar ham shartli ravishda berilgan. Dars sharoitiga qarab, ularni almashtirish mumkin. Bu esa darslarni rejalashtirishda va darslarga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy yondoshishni taqazo etadi.

Bunda shu narsaga e'tiborni qaratmoq zarurki, garchi dasturda asarlar va mashg'ulotlar mazmunini har bir faoliyat turiga doir alohida-alohida ko'rsatilgan bo'lsada, ammo darslarni rejalashtirishda va ularni o'tishda musiqa faoliyatlari dars mazmunidan kelib chiqishi va uning mohiyatini ochib berish lozim bo'ladi.

SHuni alohida e'tiborga olmoq zarurki, musiqa idrokini va musiqa savodi faoliyati o'zaro uzviy bog'lanish bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga etakchilik qiladi. Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqa o'quv qobiliyati hamda ijrochining malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir.

Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshlovchiqaradi. O'rtoqlari ijrosini eshitib, ular bilan birga jo'r bo'lib, kuylashga harakat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda qabul qilingan bolaning qay darajada ekanligi, uning oilada tarbiyalanishi yoki maktabgacha ta'limda ekanligi uning so'zlashidan ma'lum bo'ladi. Ya'ni bog'chada tarbiyalangan bolalarning nutqi qabul qilish

sulhlari bog`chaga bormaganlariga qaraganda, kuchliroq bo`ladi. SHuning uchun bolaning musiqiy savodxonligiga maktabgacha ta`lim muassasalaridayoq e`tiborni kuchaytirish lozim. SHundagina yurtimizda iqtidorlilar sonini ortib borishiga erishamiz.

Bizga ma`lumki, barcha jabhalarda umumta`lim muassasalarida muntazam o`tkazib kelinayotgan tadbirlar bevosita musiqa hamda musiqa madaniyati o`qituvchisi faoliyati bilan bog`liq. Yosh avlod tarbiyasida muhim sanalgan tadbirlarda ham musiqa san`ati muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga har qanday tadbirlarga jon kirgizadi. Musiqa va qo`shiqlarda qaror topgan harakterli maqsadlar, nasihatlar, ko`rsatmalar tadbir asosini belgilaydi.

SHunday ekan musiqa ijrosini Yoshlar ongida jonlantirishda musiqa o`qituvchilari berilgan dasturlarni mustahkam egallab, qunt bilan o`rgatganlari xolda, o`zlari qo`shimcha tarzda foydalaniladigan qo`shiqlarni tarbiyaviyligini, xushovozligini e`tiborga olib o`rgatishlari zarur bo`ladi. CHunki, bizning otabobolarimiz ham adabiyot, san`ati va musiqaning keng imkoniyatlaridan faqat insonni tarbiyalash, ma`naviy- ruhiy va axloqiy jihatdan kamolga etkazish maqsadida foydalanganlar.

Men quyida bir soatlik dars ishlanmasini misol tariqasida keltirib o`tmoqchiman:

Mavzu: MUSIQA DARSIDA O`QUVCHILARNING MUSIQIY SAVODXONLIGINI TARKIB TOPTIRISH

Darsning maqsadi: o`quvchilarni musiqiy bilimga ega qilish, musiqa savodi qismini qo`shiq kuylash musiqa tinglash bilan.

Kutilayotgan natijalar: o`quvchilarni dars daomida musiqa savodini quyi sinflardan boshlab o`rgatib borsa, Yuqori sinflarda qo`shiqni uning mazmuniga tushunib qaerni kuchli, qaerni mayin ijro etish, nafas olishni va temani o`quvchi o`zi bajara oladi va qo`shiq o`rgatish o`qituvchiga oson bo`ladi.

**Ko`rgazmali qurollar:** notalar asosida tayyorlangan ko`rgazmalar

REJA:

1. Musiqani paydo bo`lishi
2. Musiqaning inson kamoliga ta`siri
3. Musiqa darslarida musiqa savodini o`rganish
4. Musiqa savodi o`rganishning uslublari

YANGI MAVZU BAYONI

Musiqa insonning so`z bilan ifodalab bo`lmaydigan yozib isxor etilmaydigan xis tuyg`ulari vujudga keladi,

Ulug` rus kompozitori R Glier shunday degan edi: «Musiqa- bu hayot taasurotlari orqali ifodalangan fikr va his tuyg`ularidir».

Umuman, musiqaning yaralishi xaqida gap borsa, uning Olloh, bilan bog`liqligi aytiladi. Emishki, Olloh insonni yaratdi. Xamma narsa Ollohning hohishi bilan bo`ladi. Lekin shu yaratilgan insonning joni yo`q ediyu. SHunda olloh unga jon ato qilmoqchi bo`ldi. Ollohning amri bilan musiqa sadolari yangradi. SHundan keyin insonga jon kirdi va u o`z qalbiga ham ega bo`ldi. Boshqa bir rivoyatda aytiladi: SHuni bilgil va voqif bo`lginki, bu mehtarlik san`ati hazrati Jabroildan qolgan. Muqaddas olloh odam Atoga jon qilajagini aytganda jon qismga kirishga ikkilanib turadi. SHundan keyin Olloh taolo mehtar Jabroil jannatdan qushnay olib chiqishni va chalishni buyuradi.

Jabroil qushnayni chalishga kirishadi.

Qushnayning orombaxsh dilrabo oxanglari Odam atoga jon ato qiladi. SHuning uchun ham musiqa eshitgan har bir insonning qalbi taskin topadi uning xursandligi va muxabbati ham oshadi. Tarixdan bizga ma`lumki barcha buyuk allomalarimiz musiqaga o`zgacha mexr bilan qaragan. Musiqani juda puxta o`zlashtirgan va bu haqda juda ko`p risolalar bitganlar.

Masalan, Farobiy Farg`oniy, Abu Ali ibn Sino, Safliddin al-Urmaniy, Abduqodir Marog`iy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy,

Zaynobbiddin al-Xusayniy, Najmiddin Kavkabiy Buxoriy, Darvishali CHangiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur va xokazolar.

Qadimgi YUnon olimi Aflotun o`zining «Davlat haqida» asarida jamiyatni jismoniy ma`naviy jixatlardan rivojlantirishda sport va musiqa mashg`ulotlari kata ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlangan edi.

«Agar gimnastika gavdani mustaxkamlash uchun zarur bo`lsa, musiqa esa gimnastikasidir» - degan edi. Pifagor maktabi tomonidan musiqaning kishilarga poklovchi ta`siri xususan axloqiy yo`l-yo`riqlar sistemasini ishlab chiqilgan.

Aflotun, Arastu, Plutarxlar har qanday ijtimoiy tarbiya, hox pedagogik, hox estetik, hox intellektual bo`lsin, asosan musiqaviy tarbiyaga asoslanishi haqida fikrga keladilar.

Biz mashhur tabib deb bilgan Abu Ali ibn Sino san`atning ikki turi – she`riyat bilan musiqani sintez qilishga, ma`naviy tarbiyada ular o`ynaydigan rolga, ularning o`zaro aloqadorligiga kata ahamiyat bergan. Ibn Sino o`zining musiqaga doir risolalarida «Latif musiqa yoqimli kayfiyat yaratadi hamda ko`ngilni ochadi, yomon musiqa esa zardani qaynatadi» - deb o`qtiradi. Musiqaning ta`siri g`oyat keng miqiyosli bo`lib, uning samarasi yo`dir.

Xozirgi zamon musiqa ta`limi haqida gapirsak umumiy Dune qarash insonning vokealikni bilishga asoslanadi. Ta`lim jarayonida bilish jarayonining turi bo`lib, o`quv materialini o`zlashtirish bilishning maqsadi hisoblanadi.

Musiqa san`ati vositalari yordamida badiiy obrazni bilishda umuman hosil qilingan bilimlarning miqdoriy olami ham kata rol` o`ynaydi. SHunday qilib, musiqa darslarida o`kuvchilarning dunyoqarashini shakllantirish ularning bilish faoliyatini aktivlashtirish uchun kuyidagi jihatlarni tta`minlash zarur.

1. Maqsad mavjudligi hamda shaxsning yuksak ma`naviy hislatlarini rivojlantirish.

2. Musiqaning o`kuvchilar ma`naviy olamiga emisional ta`siri.

3. O`quvchilarning bilish faoliyatida Amaliy jixatlar birligi.
4. Voqealik va san`atning ijtimoiy roli ahamiyatini ko`rsatish va musiqa qonuniyatlarini anglash.
5. O`z bilganlarini amalda qo`llay bilish mahoratini hosil qilish.
6. Musiqa asarlarini ahloqiy, falsafiy, ijtimoiy - siyosiy pozisiyadan turib baholay bilish.

Musiqa darslarida bilish aktivligining Ushbu jihatlari o`kuvchilar dunyokarashlarini shakllantirish muammolarini ochib berishni boyitadi. SHuning uchun ham biz maktabda musiqadan yuksak darajada Amaliy va nazariy bilim bermog`imiz kerak.

Musiqa va qushiqni sevgan unga ixlos quygan kishidan hech qachon berahm, qotil kishilar chiqmaydi. CHunki musiqaning ta`sir kuchi bor. Musiqa insonning ruhiga ta`sir etadi ruh bu jon demakdir.

Endi bevosita maktabda musika darslarini olib borishga kelsak bunda o`quvchilarning musiqa va ashulani tushunib, mukammal ijro etishlari uchun musika savodini yaxshi bilib olishlari kerak bo`ladi.

Bunda sadodan murakkabga qarab o`rgatib borish talab etiladi. Musiqa savodi ashula darsining bo`limlaridan biri bo`lib xor bilan ko`shiq aytishga nisbatan ikkinchi darajali o`rinni tutadi. SHunga qaramasdan musiqa savodi o`quvchining musiqa ta`limida kata rol` o`ynaydi. Musiqa nazariyasi va tarixidan boshlang`ich bilim beradi. Ularning saviyasini oshiradi. Musiqa savodi musiqasiga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatda tarbiyalaydi, musiqaning mazmuninibilib olishga erdam beradi.

Eng muhimi notaga qarab kuylashga va qo`shiq aytish malakalarini hosil qilish garmonik eshitish qobiliyatining o`stirishga xor ovozlarini anik talaffuz etishga xor bilan ijro etish sifatini oshirishga o`rgatish bilan sinfda qo`shiq o`rgatish osonlashtiradi.

Maktabda musiqa savodi o`rgatishda qo`yidagi uslubiy ta`lim olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda ko`llash va savod o`rgatish bilan birgalashib qo`shiq aytishni bir – biriga chambarchas bog`lashdan iboratdir.

Musika savodini o`rganish birinchi sinfdanoq boshlanadi. Ko`pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog`chaga qatnab, bog`chagacha musika mashg`ulotlarida bir qancha musiqiy malakalar hosil qilgan bo`ladilar. Radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musika asarlari Bilan tanishgan bo`ladilar. Garchi ana shu bilimlar tasodifiy bo`lsada, ashula o`qituvchisi musikadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o`sha bilimlarga ma`lum darajada ish ko`rishi mumkin. Birinchi sinfda o`quvchilarning butun musika ta`limiga asosan olinadi, shuning o`qituvchi birinchi sinfdan o`qitish metodikasi ayniqsa yaxshi bilish, maktab Yoshidagi kichik bolalarning Yosh va individual xususiyatlarini, ularning musika va vokal-ko`shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Bolalarning musika tovushlarini baland – pastligi va cho`zimi kabi o`ziga xos chuqur bo`lishi zarur.

Musika tovushlarining baland – pastligi tushunchasini o`rganib bolalardagi mavjud tasavvurlarni aniqlashdan iboratdir. Ular ko`pincha baland tovushlar “ingichka” tovush deb, past tovushlarni yog`on tovush deb ataladi. SHuning uchun bolalar bir yo`la to`g`ri terminlardan foydalanishga o`rgatishb, baland va past tovushlarni eshitib farqlay bilishga va to`g`ri atashga odatlantirish kerak. Tovushlarning baland – pastligi tushunchasini egallash jarayonida ularning cho`zilishi tushunchasi ham aytiladi. Musika asarlaridagi tovushlar faqat balandlikka emas, balki muayyan cho`zimga ham ega ekanligi tushuntiriladi. Undan so`ng nota yozuvini bevosita yozishga kirishiladi. Turli cho`zimlarni cho`zma usulda ifodalanishi o`rgatiladi. Butun nota va uning qancha muddat davom etishi, yarim, chorak, nimchorak, o`n oltitalik va xokazo notalar cho`zimi aytib, amaliy ko`rsatiladi. Nota yo`li haqida tushuncha beradi. Nota yo`li – notalar cho`ziladigan o`rindir. YOnma – yon cho`zilgan 5 ta parallel chiziqlar nota yo`li deyiladi. Nota chiziq ustiga va chiziq oralig`iga yoziladi. Asosiy nota yo`li va yordamchi nota yo`li mavjudligi. Bu pastki va Yuqorigi yordamchi nota yo`li ekanligini tushuntiriladi. SHundan keyin o`qituvchi nota yo`li boshida maxsus belgi kamiy bo`lmaguncha nota yo`lidagi notalarni bila olmasligimiz aytiladi.

Kamiy deb nota yo`liga notalarning joylashuvini ko`rsatib beradigan belgiga aytiladi. Eng ko`p qo`llaniladigan skripka yoki sol kaliti deyiladi. Sol kaliti bilan o`quvchilar tanishtirilib, qanday tartibda yozilishi, qaysi chiziqda kesishishi, ikkinchi chiziqni o`rab olishi, shuning uchun ikkinchi chiziqqa sol notasi joylashishi aytiladi. Sol notasi qaerga joylashganini bilib olgan o`quvchi qolgan notalarni bilib olaveradi. Chunki notalar nomi tartib bilan DO, RE, MI, FA, SOL, LYA, SI deb o`qiladi. Buni o`quvchilar o`rgangan bo`ladi. SHubhasiz o`qituvchi barcha notalarni bir darsning o`zida tushuntirib berolmaydi, bolalarning o`zlashtirishga qarab har bir darsda yangi – yangi notalarni o`rganib boradi. O`quvchi uni biror cholg`u asbobida chalib ko`rsatgani ma`lum.

Ikkinchi sinfdan DO major tovushi qatorini o`rganish davom ettiriladi. SHu Yoshdagi qo`shiqchilik imkoniyatlari gammani bemalol do 1 dan do 2 gacha to`liq ravishda kuylashga imkon beradi. Gammani Yuqoridan pastga qo`llash tavsiya etiladi. Bu holda past notalarga o`tishda tovushning Yuqori holati saqlanadi.

Lekin gammani pastdan Yuqoriga qarab kuylash ham zarur, chunki bunday kuylash tufayli bosqichlarning izchilligi haqida to`g`ri tasavvur hosil qilinadi. SHunday qilib musiqa savodi bosqichma – bosqich har bir sinfga ashulaga mos ravishda asta – sekin sabot bilan o`rganib boriladi.

Musiqa darslarida o`qkvchilarning musiqiy savodhonligini tarkib toptirish shunga olib keladiki, o`quvchi biror qo`shiqni kuylaganda uning mazmuniga tushunib, qaerni kuchli, qaerni mayin ijro etishni, qaerda nafas olishni, qaerni 2 marta takrorlashni retmini, tempini va hokazo boshqa ifoda vositalarini tushungan holda vositakor talabiga mos ravishda kuylay oladi.

1. O`quvchilarda musiqa san`atiga bo`lgan qiziqish va mehr – muhabbatini oshirish.
2. Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va his – tuyg`ularni rivojlantirish.

3. Asarlarning badiiy – g`oyaviy mazmuni vositasida o`quvchilarni axloqiy – estetik tarbiyalash.

4. Musiqa darslarida kasb – hunar va mehnatga nisbatan o`quvchilarda ishtiyoq uyg`otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

2.2. Musiqa o`qitish tamoyillarini zamonaviy tarzda tashkil etish yo`llari

Umumta`lim maktablari o`quvchilarida mustaqil fikrlash qoidalarini rivojlantirar ekanmiz, ayniqsa boshlang`ich sinf o`quvchilarining o`z mustaqil fikrlarini bayon etishlari, qo`shiqlarni jonli tarzda to`liq kuylay olishlari, mustaqil fikrlay olishlari, eng muhimi milliy musiqani ongli ravishda idrok etib, qo`shiqni kuylashlari ahamiyatlidir.

2005 yillarda Xalq ta`limi tizimida Yanada chuqur o`zgarishlar ro`y berdi. Pedagog o`qituvchilarning ilmiy va kasbiyay salohiyatlarini kuchaytirish, dars sifat va samaradorligini oshirishlarida ta`limga yangiliklar olib kirilishi talab darajasiga ko`tarildi. YA`ni ta`limga innova`ion usuldagi texnologiyalarni qo`llash va ularni joriy etishga e`tibor kuchaytirildi.

Innova`ion texnologiyalarni qo`llashda musiqa o`qituvchisi har taraflama talab darajasidagi zamonaviy darslarni tashkil etilshi rejalashtirildi. Xatto o`tkaziladigan Respublika anjumanlari va tadbirlarida innova`ion texnologiyalardan oqilona foydalanish yo`llari belgilab berildi.

Innova`ion texnologiyalarni qo`llash - o`quv jarayoniga tadbiriq etish orqali pedagoglar juda ko`p yangiliklarga ega bo`ladi, ayniqsa jamiyatning rivojlanish darajasini o`rganadi, dunyoviy bilimlari pedagogda oshadi, o`quvchilarda shakllanadi, aynan musiqa olamidagi rivojlanish yangiliklarga erishish malakalari takomillashadi, bir so`z bilan aytganda yangiliklar yaratish hisobiga ta`lim jarayonining mezoni kuchaytiriladi, o`zaro fikr almashuv hamda tajribaviy bilimlar saviyasining kengayishiga erishiladi.

Ma`lumki, XXI asr texnika asridir, shunday ekan bugun har bir pedagog va o`quvchi- Yoshlar ongi rivojlanib, texnologiyaning barcha usullarini teran anglay oladi. Ayniqsa, internet tizimini keng yo`lga qo`yilishi lozimligi yurtboshimiz tomonidan ham ilgari surildi. Hozirgi zamon bolasi internet tizimidan mustaqil foydalanishi, ular erkin ravishda dunyo yangiliklaridan voqif bo`lishlari ta`kidlandi.

Innova`ion texnologiyaning zamirida ham dunyodagi mavjud ta`lim maskanlari, ularning ish faoliyatlari va dars o`tilishi samaradorligini o`rganib,

darslarda joriy etilishi ko`zda tutiladi. Jahon yangiliklari, ularning rivojlanish jarayoni, darsdagi rejalarning keltirilishi, eng muhimi darsda vaqtdan unumli foydalanish darajasini joriy etish ham ushbu texnologiyani qo`llanilishida nazarda tutiladi. YAponiya davlatida “ishga kech qolish” iborasi tushunchasi qo`llanilmas ekan, bu bilan ko`rinib turibdiki, hech kim ishga kech qolmay, vaqtni tejari ekanlar. Ana shunday vaqtning qadriga etadigan kishilarning ish faoliyatida hech qanday muammolar duch kelmaydi.

Evropa davlatlarida tahsil oladigan barcha o`quvchi- Yoshlar o`z mustaqil fikriga ega shaxs hisoblanadi, ular dars jarayonida o`qituvchi bergan bilim va malakalarni bemaol ravishda anglaydilar hamda muhokama va munozaraga erkin holda qo`yadilar. YA`ni ularning mustaqil fikrlashlariga asos mavjud bo`ladi, bunday fikrlaydigan o`quvchilarning ustozlari ham albatta, o`z o`quvchilaridan ming chandon bilim va kasbiy mahorat egasi bo`la oladi.

Bizda ham mustaqil fikrlaydigan o`quvchilar mavjud bo`lib, ular ham darsda faollikni qo`lga oladilar va darsni munozara va qiziqarli tusga aylantiradilar. YUrtboshimizning aynan bugungi kun bolasini o`z mustaqil fikriga ega bo`lishini shunday izohlashlari ham pedagoglarni yangilikka va texnologik yutuqlarga intilishga undaydi:

“ Mustaqil fikrlay olish, musiqani idrok etishni kuchaytirish bilan birga so`zlash qobiliyatini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, odob-ahloq me`yorlarini o`rganish bilan bolada mukammallikka intilish, bilim doirasini kengaytirish, yashash hissi kuchayadi.”

Mustaqil fikrlashda shuni alohida ta`kidlab o`tmoqchimanki, bugungi kunda ta`lim muassasalarida muhim sanalib kelayotgan mustaqil ta`limni o`quvchi- Yoshlar orasida ham shakllantirish lozimligi to`g`risida to`xtalib o`taman. Boisi, bir soatlik dars yoki qo`shimcha mashg`ulotlar orqali o`qituvchilar o`z maqsadiga erishi olmasligi mumkin, ularni Yanada erkinroq mashq qilib, mustaqil ravishda fikrlay olishlariga erishish uchun ularga mustaqil ravishda mashg`ulotlar berish lozimdir.

Darsda innovaion texnologiyalarni qo'llashda dars mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va boyitish, ta'lim olish va bo'lg'usi faoliyat uchun zurur bo'lgan ko'nikmalar, malakalar va fazilatlarini hosil qilish hamda rivojlantirish shaklidir.

Bu jarayon o'quvchilarning bo'sh vaqti, texnologik ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi, o'z-o'zini tarbiyalashga qaratilgan hatti-harakati, karakteri, temperamenti bilan bog'liq bo'lgan bir qancha omillarni hisobga olishni taqazo etadi.

O'quvchilar o'rtasida innovaion texnologik ta'limni keng joriy etishda Yuqori sinf o'quvchilariga turli topshiriqlar berish orqali mustaqil fikrlashni boyitishga erishish mumkin. Bunday jarayonni tashkil etishdan maqsad- ularni yangi bilimlarni o'zlashtirish, takrorlash asosida mustahkamlab borishga odatlantirish, o'quv fanlaridan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida tayyorlash, kerakli adabiyotlarni topish, bo'sh vaqtni oqilona tashkil etishga, jamiyatda bo'layotgan voqealarni to'g'ri baholashga o'rgatish, ularning musiqaga doir turli fanlarni o'rganishga bo'lga qiziqishlarini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, musiqiy-estetik didini o'stirish, o'z ustida muntazam, qunt bilan ishlash qobiliyatini o'stirishdir.

SHuni alohida e'tiborga olmoq zarurki kollejlarda bilim va ko'nikma olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarning tashkil etilishida axborot texnologiyalariga tayangan holda mazmunli va maqsadga aniq yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarda musiqa idrokini va musiqa savodi faoliyati o'zaro o'zviy bog'lanish bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga etakchilik qiladi.

O'sib kelayotgan Yosh avlodning tarbiyasi jamiyatimizning ravnaqi uchun o'ta muhim masaladir, tom ma'noda aytganda bizning shogirdlarimiz oynadagi aksimizdir. Biz hozirgi Yoshlarga qanday ta'lim va tarbiya bersak ular shundayligicha qabul qiladilar. Hozirda texnika asrida yashayotganimiz bois Yoshlarimiz qobiliyatli bo'lib, ayniqsa musiqa darslarida yoki bo'lg'usi rassomning ijodiy faoliyatida ularga mustaqil fikrlashni majburiy holda berish

kerak emas, aksincha qiziqarli, mantiqiy savollar, intellektual o`yinlar, qiziqarli SHoular, bahs-munozarali o`yin darslarini ko`proq o`tkazish lozim. O`z-o`zidan ma`lumki, musiqa darslarida biz rasmlardan foydalanamiz, rassomlar esa musiqa tinglab rasm chizishlari mumkin, shunda pedagog ko`rgazmalilikka erishgan bo`ladi.

Kollejlarda o`quvchi Yoshlarning bilim va ko`nikmalarini shakllantirishda, ularning barkamolligiga erishishda kasb-hunar rivojiga erishishda o`qituvchi-pedagoglar Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqarganlari holda ta`limga zamonaviy dasturlarni olib kirishlari lozim. O`quvchini qay darajada ko`proq bilim olishga, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga jalb etilsa, dars samaradorligiga, Yoshlar tarbiyasini to`g`ri yo`lga qo`yilishiga erishiladi. Buning uchun darsdan tashqari mashg`ulotlarni, to`garaklar faoliyatlarini chuqur o`zlashtirib, o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini ko`ngilli tashkil etishga erishish lozim.

Musiqa madaniyati darslarida xalqimizning mumtoz va zamonaviy qadriyatlaridan bahramand bo`lish darslarning samarali bo`lishida o`rinlidir, xuddi shuningdek tasviriy san`atda ham. Dars davomida o`qituvchi o`quvchilarga faqatgina musiqa tinglash va qo`shiq kuylash yoki rasm chizish bilan chegaralanmay, “Odob - inson ziynati” mavzuida qiziqarli ochiq muloqotlar o`tkazishi, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan o`gitlardan foydalanishi mumkin.

Masalan, boshlang`ich sinflarda o`tiladigan musiqa darslarida musiqa ohangi ostida qo`shiq o`rganish va Vatanimizni sevish, o`zaro hurmat hamda axloq-odob qoidalari borasidagi bahs-munozara orqali o`quvchilarni mustaqil fikrlay olish mumkin, shu vaqtning o`zida qo`shiq mazmunidan kelib chiqib, bolalarga rasm chizishni ham aytish mumkin shunda ular chizgan bayroq, gerbimizdagi xumo qushning tasvirlari jonli chiqadi.

Tabiiyki musiqa ham aynan insonning ichki va tashqi dunyosini ohanglar orqali go`zallik va yaxshilikka yo`naltiradi. YA`ni, kishilarda bo`lishi zarur bo`lgan hislatlar, aynan musiqada ham bo`ladi, jumladan, milliy qo`shiq chiroyli harakat, hushmuomalalik- hushohanglik bilan uyg`unlashadi. SHu o`rinda ta`kidlash lozimki, odobli bola bosiq, muloyim, kamtar ota-onasiga mehribon

bo`ladi. Qo`pol, manmansiragan, hudbin bolalar esa elga yoqmaydi. Xuddi shuningdek yoqimsiz qo`shiq yoki beo`xshov rasmlar ham insonning g`ashini keltiradi.

Dars davomida tarbiyaviy qo`shiqlarni o`rganish orqali o`quvchilarning ijodkorlik idroki kuchayadi, mustaqil fikrlaydi hamda tasvirlarda taqqoslash qobiliyatlari rivojlanadi. Mustaqil fikrlay olgan o`quvchi o`qituvchi o`rgatgan qo`shiqni to`g`ri o`rganadi, uning mazmuniga e`tibor berib kuylaydi hamda ta`sirli chiqadi.

Musika o`qituvchisi mavzudan kelib chiqib, o`quvchiga shunday savol berishi lozimki, savolning o`ta sodda va qiziqarliligi bahs-munozaraga aylanib ketsin. O`qituvchi-pedagog 45 daqiqa mobaynida salomlashuv odobi, nutq madaniyati, badiiy-obrazlilik, yuksak pedagogik mahorat, ijodkorlik qobiliyati orqali o`zini o`quvchilarga namoyon etishi lozim. O`qituvchi darsni tashkil etayotganda albatta o`quvchining Yoshi va qiziqishini inobatga olishi shart, shundagina uning shogirdlari mustaqil fikrlagan holda o`z ustozidan andoza olaveradi.

Innovation texnologiyani joriy etishda o`quvchilarning o`zlarini erkin tutishlariga erishish lozim bo`ladi. Bunda aynan yagiliklar o`ylab topish, o`quvchilarga mutloq yangilik tariqasidagi musiqiy “roliklar” taqdim etish, milliy musiqalarni o`rgatishda ham zamona ruhini qo`shgan holda texnologiyaga erishish kerak.

O`quvchilarga innovation tizimni joriy etishda fikrlash qobiliyatlarini o`ta zo`riqtirmaslik uchun sodda va qiziqarli “metod”lardan foydalanish lozim. Dars jarayonida, ayniqsa manzaralarni tabiat qo`ynida chizilsa o`quvchi uchun qiziqarli bo`ladi, u erkin holda ijod qiladi. Ma`naviyatini boyitish orqali, eng avvalo o`sib kelayotgan Yosh avlod, ajdodlari, boyliklari, hususan an`ana va urf-odatlarimiz haqida mustaqil fikrlashga ega bo`lmoqlari lozim. O`quvchilarda mustaqil fikrlash qoidalarini rivojlantirar ekanmiz, ayniqsa boshlang`ich sinf o`quvchilarining burro-burro qilib gapirishlari, mustaqil fikrlay olishlari, eng

muhammadiy milliy musiqani ongli ravishda idrok etib, rasmni jonli tarzda chizishlari ahamiyatlidir.

Musiqqa darsida innovaion texnologiyani joriy etishda boshqa davlatlar yangiliklarini olib kirishda albatta tarbiya ko`nikmalariga e`tibor qaratish lozim. Chunki boshqa bir davlat musiqqa san`ati mutloq bizning azaliy musiqamizga to`g`ri kelmasligi yoki bizning urf- odatlarimizni yoritmay olmasligi mumkin. SHunda ularning kuchli taraflarini, masalan, xatto boshlang`ich sinflarning o`quvchilari ham bemalol notaga qarab kuylashlari, sur`at va tempni ajrata olishlari, turli musiqiy tovushlarni tezda ilg`ashlari , ikki ovozda jamoa bo`lib kuylashlari kabi jihatlarni misol qila olishimiz mumkin.

Innovaion texnologiya Yana bir jihati boshqa millatga mansub bo`lgan turli qarashlarni yangi ko`rinishlarini, ya`ni tabiia ko`nikmalari, ijodiy izlanish samarasi, texnikani chuqur bilish kabi malakalarni o`zaro bog`lash, o`rganish, joriy etishdan iboratmusiqani va tasviriy san`atni kuchaytirish bilan birga so`zlash va tasavvur etishni ham kuchaytiradi. Ayniqsa, odob-ahloq me`yorlarini o`rganish bilan bolada mukammallikka intilish, bilim doirasini kengaytirish, yashash uchun kurashish hissi kuchayadi.

Kasb ta`limini rivojlantirishda o`qituvchi pedagoglar o`quvchi-Yoshlarni barkamollikka erishishlarida o`z ijodiy qobiliyatlarini sarflab, ularni bilimli-uquvli etib tarbiyalashlari lozim. Buning uchun hech nima to`siq bo`la olmaydi. Bugungi kunda o`quvchilarga ta`lim va tarbiya berishda yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy darslarni tashkil etish davr talabidir.

Internetni o`rganadigan, yangilikka intiladigan Yoshlar eng avvalo, mustaqil fikrlay olish, musiqani idrok etishni kuchaytirish bilan birga madaniyatli so`zlash qobiliyatiga ham ega bo`lishi zarur. Odobli va madaniyatli shaxsgina internetdan nimani qidirish va o`rganishni ham uddalaydi. Ayniqsa, odob-ahloq me`yorlarini o`rganish bilan bolada mukammallikka intilish, bilim doirasini kengaytirish, yashash tarzini o`rganib borish lozim”.

Respublikamizda “Ta`lim to`g`risi”dagi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda DTS talablari asosida ish olib borish kasb ta`limini

rivojlantirishda asos bo'ladi. To'qqiz yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etilgach, barcha o'quv fanlar qatori musiqa madaniyati fanidan milliy ijro ustivorligida va hozirgi zamon talabi asosida yangi dastur yaratildi.

Dastur asosida darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, tavsiyanomalar, tahminiy mavzuli ish rejalari yaratilmoqda, chunki, musiqa tabiatiga ko'ra inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish, musiqa idrokini shakllantirish, musiqa savodxonligini oshirish va ahloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir.

Davlat ta'lim standartlarida belgilanganidek, mahalliy-uslubiy qo'shiqlardan foydalanish, mahalliy bastakorlarning asarlarini o'rganish musiqa madaniyati darslarida qo'l keladi. O'quvchi bunday usuldagi qo'shiqlarni tez o'zlashtiradi. Ular ohanglarning yoqimlilikini qalban his etadilar, biroq ettinchi sinflarda berilgan xalq qo'shiqchiligiga oid qo'shiqlar hamda maqomlar kollejlarda tahsil oluvchi o'quvchilarga o'rganishlarida murakkabdir. Bunday qo'shiqlarni kasbga yo'naltirilgan o'quv muassasalariga berish o'rinlidir.

Tarbiya topgan bolagina o'qituvchining bergan topshirig'ini o'z o'rnida bajaradi. O'quvchilar bilan mustaqil ishlashda ularning musiqiy ijrosini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Musiqiy ijrosi barcha faoliyatlar amaliyotida etakchi xususiyatga ega ekanligini davlat ta'limi standartida ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

SHu jihatdan olib qaralganda ta'lim jarayonini musiqiy idrok etishda yangi pedagogik texnologiyalarga tayanish, innova^{tion} texnologiyalardan foydalanish Yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi bir qancha omillarni kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchiga beriladigan mustaqil topshiriqda musiqali harakatlar, cholg'uchilik ijodlarning faoliyatini amalga oshirishda o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Musiqa darslari o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan maktabdagi boshqa fanlardan ajralib turadi. Musiqa bolalarning

aqliy va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Badiiy tarbiya esa uning mantiqiy mazmunidir.

Musiqqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Ijro etilayotgan asarni musiqqa sur'atiga sozlanib, uning har bir elementini anglab olib tinglanmasa asar mukammal idrok etilmaydi. SHuning uchun ham musiqqa asarlarini qayta-qayta tinglanganda uning yangi badiiy qirralari ochilib boradi.

Musiqqa darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va tamoyillari asosida tuziladi. Mazkur tamoyillar dars mazmuni, metodlari va darsning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi.

O'qitish jarayonining asosiy qonuniyatlari didaktik tamoyillarda o'zining aniq ifodasini topgan. O'qitish tamoyillari deganda o'qitish asosida yotadigan o'quv jarayoni va uning o'tkazishning butun jarayonini tashkil etish mazmuni, metodlari, shakllarining tanlanishini belgilaydigan boshlang'ich qonunlarini tushunmoq kerak.

Tamoyillar o'rtasida o'zaro uzviy aloqa mavjud. Ulardan birining buzilishi o'z-o'zidan ikkinchisining buzilishiga olib keladi. Tamoyillardan o'qitish qoidalar kelib chiqadi. qoidalar o'qituvchining ayrim usullari harakterini belgilaydi va tamoyillarni amalga oshirishga olib keladi. qoidalar faqat didaktika tomonidan emas, balki o'quv vaziyatiga tegishli bo'lgan xususiy metodikalar tomonidan ham ishlab chiqiladi.

Musiqiy o'qitish tamoyillarini zamonaviy shaklda tashkil etish o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Barcha turdagi tamoyillarni ham zamonaviy shaklda o'tish mumkin, biroq, aralashtirmay bolaning Yoshiga mos tarzda dastur tuzib tashkil etish talab etiladi. Masalan onglilik va faollik tamoyillaridan foydalanayotganda dars o'z- o'zidan qiziqarli tarzda kechadi, shunda o'qituvchi darsni qiziqarli o'yin usulidagi shaklda amalga oshirsa ham bo'ladi, lekin Yuqorida ta'kidlaganimdek, ushbu tamoyilda zo'riqtirmaslikka erishish kerak, chunki ushbu tamoyil bolalarning aqliy jarayonlari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Onglilik va faollik tamoyillari. Mazkur tamoyil didaktikaning etakchi tamoyillaridandir. Pedagogning rahbarlik roli asosidagi o`quvchilarning onglilik va faollik tamoyillari o`qitish jarayonida o`quvchi o`rganilayotgan musiqa materiallarini chuqur anglashini, asarlarning mazmuni va mohiyatini tushunishini va natijada, egallangan bilim hamda malakalarini amalda maqsadga muvofiq qo`llashga qodirligini nazarda tutadi, chunki musiqiy bilimlarni o`zlashtirish – o`quvchi aqliy faoliyatining asosiy sifati bo`lgan bilim jarayoniga bog`liq.

Musiqani ongli idrok etish va bilish o`z navbatida asarni badiiy ohang va mantiqiy jihatdan turg`un saqlanishini ta`min etadi. SHuni esdan chiqarmaslik zarurki, diqqat, qiziqish va ongli ravishda o`rganilgan qo`shiq ohangi va tinglangan musiqa kuyi xotirada bir umr saqlanib qoladi. Garchi u vaqti-vaqti bilan takrorlanib turilmasa ham. Musiqaning metodik xususiyatlar, undagi ko`p ovozlilik, qo`shiq materiallari, musiqiy lavhalar, kompozitorlar hayotiga doir sanalarni shunchaki yod olishdan iborat bo`lmay, balki u bolalarda turli hissiyot tuyg`ularini, fikriy kechinmalar, xayol, estetik-badiiy didlar uyg`otib, hosil bo`lgan qandaydir obrazlar va g`oyalar haqida o`ylashga undashi lozim.

Musika idroki bolaning hayotiy tajribasini boyitadi, real voqelikni badiiy his etib, bilish qobiliyatini o`stiradi, fikrlash xususiyatini rivojlantiradi. Ammo mazkur malaka va ko`nikmani shakllantirish bola ongida uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Kichik musiqa asarini idrok etishga ko`nikkan bola yirik musiqa asarini idrok eta olmaydi. Demak, bolaning musiqa idroki qobiliyatini bu darajaga etishi uchun katta asarni eshitib bilishga lozim bo`lgan bilim, malaka va ko`nikmalarni ongli ravishda faol o`zlashtirishi lozim. Ammo bu o`z-o`zidan vujudga kelmaydi. Buning uchun musiqa tarbiyasida sistemalilik va davomiylik tamoyilini qo`llagan holda bolaning o`quv materiallarini ongli bilib o`zlashtirishi, bilim jarayonining faolligini vujudga keltirishi lozim. Ongli munosabat avvalo o`qitishning mazmuni, dars berish usullari bilan bog`liq bilish istagining tug`ilishini taqozo etadi.

Musika darsining o`zi qiziqarli bo`lganidagina o`quvchi o`qishga intilib turadi. Bu o`rinda ko`p narsa o`qituvchiga, uning ish uslubi va metodiga,

o`quvchilarga bo`lgan munosabatiga bog`liq. Ma`lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o`zlashtirish va undan badiiy-estetik zavqlanib, g`oyaviy boyish uchun mazkur asarni idrok etishga, bolaning eng avvalo, diqqat e`tiborini jalb eta bilish va unda qiziqish uyg`ota bilish shart. Aks holda onglilik va faollik vujudga kelmaydi.

Ma`lumki, badiiy adabiyot, tasviriy san`at va haykaltaroshlik asarlarini, tabiat go`zalligi va muzey eksponatlarini kishi ixtiyoriy ravishda o`zining badiiy ehtiyojiga mos sur`atda o`qiydi va tomosha qiladi hamda idrok etadi. Ammo musiqa bunday imkoniyatdan mustasnodir. Chunki musiqa tinglovchisi ham, kuylovchisi ham, ijrochisi ham kompozitor belgilagan tempga sozlanishi, shu tempda kuylashi va tinglashi zarur.

Aks holda musiqa va tinglovchi o`rtasida uzilish hosil bo`lib, idrok buziladi. Shuning uchun ham musiqa darslarida onglilik va uning faolliligi muhim rol o`ynaydi. O`quvchilarning darsda onglilik va faolliligi vokal-xor malakalarini shakllanishi uchun zarurdir. Buning uchun o`qituvchining tushuntirish vositalarining maqsadga muvofiqligi, aniq va ravshanligi, bolalarning so`z boyligiga mosligi, vokal mashqlari va qo`shiqlar esa ularning ovozi va kuylash malakalariga mos tushishi shart. Musiqa savodidan o`rganishda esa onglilik va faollik musiqani nazariy va amaliy jihatdan to`g`ri bilish va o`zlashtirishini osonlashtiradi. Bilishning faol harakterga ega ekanligi o`quv faoliyatida ham namoyon bo`ladi. O`quvchilar musiqiy o`quv materialini faqat faol bilish faoliyati jarayonidagina tushinishi va o`zlashtirishi mumkin. O`quvchi qiziqishi va o`qish istagi borligi uchun mustaqil ravishda mehnat kiladi. Uning musiqa darsidagi faolligi, mehnatsevarligi, bilimga tashnaligi oqibatida yuz beradi. Bu o`rinda musiqa o`qituvchisining roli o`quvchiga o`z o`qish vaqtini to`g`ri tashkil etishga yordam berishdan, unga aqliy faoliyatning raʼional usullarini o`rgatishdan iboratdir.

Musiqa darslarida ilmiylik, sistemalilik va davomiylik tamoyili. Ilmiylik tamoyilini o`rganilayotgan materiallar hajmi hamda qiyinlik darajasining shug`illanuvchilarning Yoshi, individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasiga

muvofig bo'lishi talabini anglatadi. Bu tamoyilni amalga oshirar ekan o'qituvchi musiqiy asar, faoliyat turlari, savolni o'rganish uchun zarur bo'ladigan vaqtni aniqlaydi.

U o'quvchilarga tushinarli bo'ladigan yangi tushuncha, musiqiy iboralar xajmini, o'rganilayotgan faoliyat turlarini yoritish chuqirligini, amaliy ijro murakkabligini, o'qitish metodlarini belgilaydi. Ilmiy bilimlarning tarixiy rivojlanishi qurshab turgan olam qonuniyatlarini kamroq tushunishdan Yanada chuqurroq tushunnishgacha ko'tariladi. Ilmiy bilimlar ilmiylik xususiyatini yo'qotmagan holda musiqa olamini har xil darajada tushuntirib berishi mumkin. SHuning uchun ham o'quv dasturida o'rganilayotgan musiqa asarlari o'quvchilarning Yoshiga, ularni rivojlanish darajasiga qarab ko'proq yoki kamroq teranlik bilan izoxlab berilishi mumkin. Masalan, Davlat Madhiyasi barcha sinflarda o'rganiladi.

Bu asarning ilmiy ta'rifi yil sayin chuqurlashib boradi. Madhiya o'rgatilishining birinchi bosqichida yuzakichilikka yo'l qo'ymaslik kerak. Har bir dars singari musiqa darsi ham o'zining tuzulishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi zarur. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi musiqa ta'limi va tarbiyasida asosiy negizdir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qonun-qoidalar, hulosalar, umumlashma musiqaviy tajribalar tarzida o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil etishi demakdir. Musiqa darslari jarayonida o'quv materiallarining bolalar bilim va tajribasiga mosligi, bolalar ovozinig rivojlanishi qonuniyatlarini xisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asarlarini bolalarning idrok etish qobiliyatiga mos tahlil etish va boshqalar musiqa darsining ilmiylik tamoyilini tashkil qiladi.

Ilmiy dunyoqarashni muayyan bilimlar sistemasi asosidagina tarkib toptirish mumkin. SHuning uchun ta'lim sistemali va davomiy bo'lishi kerak. Dars shaxsni tarkib toptirishning asosiy vositasi, sistemali ilimlarning asosiy manbai bo'lishi kerak – faqat shunday sharoitdagina u katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Musiqa darsi o'z ishida ta'limning sistemalilik va davomiylik

tamoyillariga amal qilgan taqdirdagina o'quvchilarga sistemali bilim berish malakalarni singdirish mumkin.

Ilmiylikni sistemaliksiz amalga oshirib bo'lmaydi. Musiqa darsining barcha faoliyat turlari hamda keyingi darslarning ham o'zaro mantiqiy bog'lanishi sistemalilikni tashkil qiladi. Bir xil musiqa asarini turli xil yo'llar, metodlar, vositalar bilan o'rganishi mumkin. O'qituvchi asarni o'rgatishning tegishli aniq sharoit uchun eng maqbul sistemasini qidirib topishi mumkin.

Kuylash va tinglash uchun asarlarni bolalar bilimi va malkalari, vokal va xor malakalari darajasiga xos tanlash hamda ularni oddiydan murakkabga va ma'lumdan noma'lumga qarab o'zlashrib borish tamoyili asosida tartibga solish sistemalilik demakdir.

Darsning har bir elementi o'z navbatida har bir dars galdagi darsning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarini tabora amalga oshirishi esa davomiylik tamoyili demakdir. Musiqa faoliyatlari davomida o'quvchi shaxsining darsga qobiliyatligi, mehnatsevarligi yoki yalqovligi, o'qishni istamasligi, qat'iyyatligi yoki bo'shligi, intizomligi yoki poyntar-soyintarligi, bilim olishga qiziqishi yoki qiziqishi yo'qligi, kam yoki tez toliqishi va shu kabi xislatlari namoyon bo'ladi. O'quv ishi sistemi, agar o'qituvchi ta'sir o'tkazish sistemasini oldindan rejalashtiradigan bo'lsa, har bir darsda bolada ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Musiqa darslarida ko'rgazmalilik tamoyili. Ko'rgazmalilik tamoyilining mohiyati o'qituvchi o'rganilayotgan musiqa fani va undagi faoliyatlar xaqida o'quvchilarga aniq, ravshan tasavvur yaratishidir. Bunday tasavvurlar musiqa asarini Yanada chuqurroq tushunish uchun zamin hisoblanadi. SHuni aytib o'tish joizki, ko'rgazmalilik faqat bilimlar manbai rolini bajarib qolmaydi, balki o'quvchilarning rivojlanishlariga ham ta'sir qiladi.

Ko'rgazmalilikni qo'llash tafakkur va nutqning rivojlanishiga yordam beradi, konkretan abetraktga o'tishni osonlashtiradi, idrok va diqqatni uyushtirishga ko'maklashadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili qo'yidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

- ko`rgazmalilik darsning maqsadi va vazifasiga muvofiq keladi;
- ko`rgazmalilik og`zaki tushuntirish bilan birga qo`shib olib boriladi;
- darsda ko`rgazmalilik haddan tashqari ko`p qo`llanilmaydi;
- o`qituvchi namoyish qilish o`rni, vaqti va davomiyligini to`g`ri aniqlaydi;
- ko`rgazmalilikni amalga oshirishda o`quvchilarning xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga asoslanadi.

Musiqqa tarbiyasida musiqaning o`zi o`ziga ko`rgazmali vositadir. Chunki u ko`z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Masalan o`qituvchi qo`shiq yoki mashqning ohangini chalib kuylab ko`rsatganda ohang va so`z asosan quloq bilan bamisoli «ko`rib » qabul qilinadi. Musiqqa tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko`rgazma sifatida chalib ko`rsatiladi.

O`qituvchi so`z yordamida o`quvchilarning ko`rgazmali ob`ektlarni kuzatishlari hamda ulardagi mavjud bilimlar asosida asarlarning idrok qilish jarayonida «ko`rish» mumkin bo`lmagan aloqalarini anglash va ifodalashga olib keladi. O`quvchilar asosiy ma`lumotlarni o`qituvchining og`zaki tushuntirishidan oladilar, ko`rgazmali vositalar esa ularni yo tasdiqlaydi, yo aniqlashtiradi.

Ko`rgazmali qurollar o`quvchi ongida yangi xissiy obrazlarni hosil qilish va mavjudlarini esga olish vositasidir. Musiqqa fani uchun qurshab turgan olamda mavjud bo`lgan ko`plab narsalar, xodisalar, ko`rgazmali o`quv qurollar va vositalariga kiritilmaydi.

Tabiatda mavjud narsa agar, birinchidan, o`z borlig`ining real sharoitlaridan ajratib olinsa (barg uzib gerbariy qilinsa, qush qafasga olinsa), ikkinchidan, o`quv jarayonida foydalanilsa, u ko`rgazmali qurolga aylanadi. Musiqqa darsida o`qituvchining chalishdagi qo`l harakatlari, kuylayotgandagi yuz ifodasi va mimikasi, dirijyorligi, doskaga ilingan qushiq plakati, tovushlar baland-pastligini ifoda etuvchi grafik chiziqlar, tarqatma materiallar, mashq yozuvi ham ko`rgazmali vositadir, ammo u musiqqa sadosi ko`rgazmaliligiga yordamchi, ikkinchi darajali vositadir.

Buni shu bilan isbotlash mumkinki, musiqani ko`zi ojiz kishi ham idrok

etadi, ammo u tasviriy san`atni idrok etolmaydi, tabiat go`zalligini ko`ra olmaydi. U ularni musiqa ohanglarida tasavvur qilishi mumkin.

Darslar jarayonida asarlarning mazmuning hos rangli kartinalardan foydalanish asarining badiiy mazmunini aniq tasavvur etib idrok etilishiga yordam beradi. Ayniqsa klaviatura orqali musiqa tovushlarini chalib ko`rsatish dastlabki idrok malakalarini shakllanishida ahamiyatlidir. O`qitishning ko`rgazmaliligi tamoyilidan har tamonlama foydalanish o`quvchilar xissiy bilishining barcha jihatlariga raxbarlik qilishni, boshqarishni taqazo etadi.

Darsda o`quvchilarning bilish kuchlarini har tamonlama rivojlantirish va mustahkamlik tamoyili. O`qitish vazifalaridan biri o`quvchilarni har doim amalda qo`llashlari mumkin bo`lgan mustahkam bilim, ko`nikma va malakalarni egallashlaridir. Mustahkamlik tamoyillari o`quvchilarni tez va aniq eslanadigan, xotirada uzoq saqlanadigan, amalda mohirlik bilan qo`llaniladigan bilim, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish zarurligini anglatadi. Musiqa darsi faqat sistemali bilim beribgina qolmay, balki o`quvchilarning fan asoslarini puxta egallashlarini ham ta`minlashi kerak.

O`qituvchi bu mustahkamlikni ta`minlaydigan maxsus usul va vositalarni bilishi zarur. Masalan, musiqani idrok qilishni shakllantirish, qo`shiqni badiiy ijro etish va musiqa savodidan olgan bilimlarni o`zlashtirishning mustahkamligini ta`minlash hamda o`quvchilarni musiqiy rivojlantirish uchun takrorlashning bir necha turlaridan foydalaniladi.

Joriy takrorlash yoki boshlang`ich mustahkamlash o`quvchilarning hozirgina tinglagan musiqasini esga tushurishlaridir. Takrorlashning bu turi tarkib topgan tasavvur va tushunchalarning yo`qotilishini oldini olish uchun bevosita o`qituvchi tinglagan musiqa xaqidagi suxbatidan so`ng amalga oshiriladi.

Umumlashtiruvchi takrorlash kengroq darajadagi umumlashtirishlarni qo`llash imkonini beradi. Butun mavzu o`tib bo`lingach, umumlashtiruvchi xulosalar chiqariladi, musiqiy faoliyat turlari o`rtasida aloqalar o`rnatiladi, bilimlar sistemalashtiriladi.

Obrazli takrorlash egallashi lozim bo`lgan asosiy g`oyani ajratib

ko'rsatish imkonini beradi. CHorak oxirida yaxlit bir mavzu hatto bir necha qo'shiqlarni obrazli yoritishda obrazli takrorlashdan foydalanish mumkin.

Takrorlashning aytib o'tilgan turlaridan foydalanish o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining mustahkamligini ta'minlashi lozim. Takrorlash sistemali va o'z vaqtida bo'lishi kerak. Takrorlash jarayoniga xilma-xillik kiritish, e'tiborni musiqa faoliyatlariga qaratish, noaniqliklar va yuzaga keluvchi xatolarni bartaraf qilish, mavjud bilimlarni va ularning tegishli ko'nikma hamda malakalar bilan aloqasini chuqurlashtirish lozim.

Musiqa tinglash va qushiq kuylashni ko'p marta takrorlash ta'sirli vosita hisoblanadi. SHuni uqtirib o'tish lozimki, o'qitishning barcha tamoyillari bir-biri bilan chmabarchas va uzviy bog'langan. Ko'rgazmalilik bilimlarning onglili va faol egallanishga yordam beradi. Ongda qayta ishlangan, kuylashda ongli va to'g'ri ifoda qilingan musiqa asarlari mustahkam egallanadi. O'quvchilarga tushunarli bo'lgan asarlar, ya'ni ularning Yosh va individual xususiyatlariga hamda tayyorgarlik darajasiga mos keladigan asarlar ongli o'zlashtirilishi mumkin. Sistemalashtirilgan bilim puxtaroq o'zlashtiriladi.

O'quv mavzularini o'zlashtirishning mustahkamligi ko'pgina omillarga: o'qitishning ilmiyligi va sistemaliliga, tushunishining ongliligiga, o'quvchilarning bilish faolligiga, o'qish sabablariga, musiqa darsliklarining sifatiga, musiqa o'qituvchisining mahoratiga bog'liqdir.

Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqa darsini mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Yuqoridagi, qayd etilgan umum didaktik bo'lib, musiqa darsini davlat ta'lim standartiga muvofiq, milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, uzluksizligini va uzviyligini asos qilib musiqa faoliyatlarini izchilligi ta'minlaydi.

XULOSA

Insoniyat hayotini musiqasiz tassavvur etish qiyin. Musiqa kishilarga ma'naviy ozuqa bo'lishi bilan qimmatlidir. U odamlarning shodligu quvonchiga va g'am-anduhiga sherik bo'lib, doimo birga yashaydi.

Musiqa kishi ruhiyatiga sekin-astalik bilan ta'sir qiluvchi sexrli kuchdir. Musiqa ko'hna tarixning hamroxi bo'lib, unda zamonlarning aks-sadosi bordir. Uni toshga bitilgan maktubdek, turgan naqshdek teran tushuniladi.

Kollejlarda musiqa darslarining sifat va samaradorligiga erishishda musiqa o'qituvchilari darsni to'g'ri va zamon ruhida tashkil etish imkoniyatlari bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bunda o'qituvchi eng avvalo vaqt me'yorini to'g'ri tashkil etgani holda o'z rejasini ta'lim standartlariga binoan tuzishi va darsni qiziqarli o'tishi zarur.

Musiqa fani boshqa fanlarga ko'ra o'z xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchi bu darsga qiziqish va intilish bilan ishtirok etadi. Bunda albatta musiqa sehri ham sabab bo'ladi, bizga ma'lumki, bola musiqani eshitish organi orqali qabul qilsada, biroq uning ta'siri markaziy nerv sistemasi orqali butun organizmga o'tadi. Chunki yoqimli kuy va oxangraboday qo'shiq ajib sehlidir. Binobarin har bir fursatimiz, har bir kunimiz, to'ylarimiz, to'ylarga o'xshab ketuvchi kecha va ajoyib tadbirlarimiz kuy qo'shiqsiz o'tmaydi.

Ana shunday dilrabo kuy qo'shiqlar tinglovchi qalbiga olam-olam shodlik bag'ishlaydi, tomirlarning tanobi bo'shashib, qon ravon aylana boshlaydi. Musiqa sadolari eshtilishi bilanoq yurak darrov o'ziga keladi. Bu bilan siqilib yotgan azoyi badan hamda to'qimalar ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Natijada har bir a'zo o'z vazifasini a'lo darajada o'tay boshlaydi.

Maktabda musiqa darsini tashkil etishning har tomonlama zamon ruhiga mos ravishda tashkil etishni yo'lga qo'yishda musiqa pedagoglari bor imkoniyatlari darajasida innovaion texnologiyalardan foydalanib ish tutishlari lozim.

SHu o'rinda men bir taklifni o'rta tashlamoqchiman, musiqa dars soatini ko'paytirgan holda innovaion usulda dars rejasi va aniq ishlanmasi joriy

etilsa, ushbu ishlanma dastur timsolida barcha muassasalarda o'z yo'nalishlariga mos ravishda o'tilsa.

Musiqqa ohanglarining kishi ruhiyatiga ta'siri Abu Nasr Farobiy va Abu Ali Ibn Sinoni ham qiziqtirgan. «Kuy – tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa rux ham to'siqqa uchraydi. SHuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytiradi». -degan edi Farobiy bobomiz. Ha, qo'shiqlarimiz, kuylarimiz ona tilimiz, nutqimiz kabi qadimiy va qadrlidir. Musiqqa san'atimiz Yoshu-keksaning ezgulikka va go'zallikka etaklaydi: Yosh avlodni ona yurtga, tabiatga bo'lgan muhabbatini tarbiyalaydi, ota-onaga bo'lgan va kichiklarga izzatu kattalarga xurmatni, mehnatga bo'lgan munosabatni o'stiradi, atrof muxitga bo'lgan qiziqishini o'stiradi.

Insonning ruhiy olami, nozik xis-tuyg'ulari, ichki kechinmalari uning ijtimoiy faoliyatini boshqarishda muxim ahamiyatga ega. Barkamol ruhiy ko'tarinkilik, ajib xis tuyg'ular va ichki kechinmalari mutanosiblashtirishda jozibali musiqaning sexrli ta'siri beqiyos, ulkandir.

Ajdodlarimiz asrlar davomida musiqaning qudratiga taxsinlar o'qiganlar, o'z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan baxramand bo'lganlar, ezgu niyatlarni amalga oshirganlar.

Hozirga kelib musiqaning fusunkor ko'lemi Yanada kengaydi, uning mavqei tobora yuksaldi, jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlandi. Endi musiqqa guzal Vatanimizda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan mustaqil soxadir. O'quv tarbiya jarayonida musiqqa Yosh avlodga axlokiy –estetik tarbiya berishning asosi bo'lib hisoblanadi, ta'lim jarayonining bir qadar jadallashuvi, samaradorligi unga bog'liqdir.

Musiqani tushunish, tinglash, ijro etish va undan xayotda manfaatdor bulish insoniy madaniylik bilan uyg'unlashib ketgan.

Xalqimiz yaratgan durdonalarning biri hisoblangan musiqqa har sohada, chunonchi, ta'lim tarbiyada, mehnatda va ijtimoiy munosabatda ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Murg'ak go'dakdan tortib to nuroniy qariyalargacha, jismoniy

mehnat soxiblaridan to aqliy mehnat axillarigacha – hamma san`at ne`matlaridan bahramand bo`ladi, ertangi kunning Yanada porlok bo`lishi uchun intiladi.

Musiqqa estetik tarbiyaning eng asosiy qismlaridan bo`lib, u bolalarni musiqaga yaqinlashtirish , musiqqa san`ati asarlarini tushinishga va ijro etishga o`rgatish ishlarini ularning kichik Yoshidan boshlashni taqozo qiladi.

Musiqqa jamiyat hayotining muhim elementidir. U inson ruhiyatiga kuchli ta`sir ko`rsatish imkoniyatiga ega bo`lib, kishilarning ichki dunyosini aks ettirish bilan ularga bir-birlarini yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi, oliyjanob, kechinmalarni vujudga keltirish bilan odamlarga aloxida kuvonch bagishlaydi va bitta maksadga da`vat etadi.

Jamiyatimizda oila, maktab va jamiyatchilik oldiga bolalarda xayotga ijodiy munosabatda bo`lish qobiliyatini tarkib toptirish vazifasi qo`yilgan. SHuning uchun ham bizda musiqqa alohida tarbiyaviy ahamiyatga egadir .San`atning eng muhim tarmoqlaridan biri bo`lgan musiqqa o`quvchilarga insonning g`oyat keng dunyosini, o`zlarini qurshab turgan hayotni va zamondoshimiz ko`zi bilan o`tmishni yaqqol gavdalantirib berishi mumkin.

Ana shu sababli ularda musiqqa qiziqish uyg`otish, musiqqa asarlari tilining ayrim ifoda xususiyatlarini tushuntirishga intilishini vujudga keltirish musiqaviy didni tarbiyalash va fikr doirasini kengaytirish juda muxim vazifa bo`lib, bu vazifani amalga oshirish uchun ularni o`zbek xalq qo`shiqlarini va bastakorlarning asarlari bilan muntazam ravishda va maqsadga muvofiq holda tanishtirib borish zarur.

SHundagina kishi ruhiga emoçional ta`sir ko`rsatadigan musiqqa san`atining bir turi sifatida Yosh avlodning ma`naviy qiyofasini shakllantirishda amaliy yordam beradi.

Ilg`or g`oyalarni, davrimiz obrazlari va ziddiyatlarni shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruxda hamda zamonamiz nutqining nazariy tarannum etuvchi asarlari o`quvchilarda g`oyaviy e`tiqodni, ma`naviy va estetik g`oyalarni tarbiyalash uchun boy manbaa hisoblanadi.

O`quvchilarda musiqa tilining o`ziga xos xususiyatlarga doir tushuncha va tasavvur hosil qilish ancha murakkab uzoq davom etadigan jarayondir. Bu vazifa o`quvchilarning musiqani ongli idrok etishlari, elementar taxlil qilishlari va ularning musiqa xaqidagi bilimlarini boyitib borish asosidagina muvaffaqiyatli bajarish mumkin.

Binobarin, musiqani faol idrok etish musiqa tarbiyasining asosidir. Bolalar musiqani astoydil tinglab, u xaqida biror fikr yuritsagina musiqaning estetik ta`limiy va tarbiyaviy funkuiyasi amalga oshadi. Musiqani chinakam, xissiyot bilan idrok etish musiqaga yondashishning eng faol shakllaridan biridir.

Musiqa tarbiyasi musiqachini emas, balki eng avvalo insonni tarbiyalashdan iboratdir. O`quvchilarda musiqa bo`yicha ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ularga bevosita va emoional ta`sir ko`rsatadigan musiqa san`atiga doir darslar asosiy omil xioblanadi.

Musiqaning san`at sifatida eng muxim xususiyati shuki, u ijodiy kuchni qo`zg`otishning ta`sirchan vositalariga ega. O`quvchilar tinglagan yoki ijro etgan musiqa asarlari ularda estetik munosabatni vujudga keltirishga xizmat qiladi. SHuningdek, musiqa o`zining aloxida usullari bilan chuqur fikr va xissiyotni, davrning harakterini aks ettirishi mumkin. O`quvchilarni tarbiyalash shunday olib borish kerakki, musiqa san`ati ular oldida voqealikni obrazli in`ikosi, kishi ijtimoiy xayotining undagi ideallar, intilish va fikrlarning ifodasi sifatida nomoyon bo`lsin.

SHundagina musiqadan muntazam va keng foydalanish Yosh avlodni g`oyaviy estetik tarbiyalashning samarali omili bo`ladi.

Musiqa asarlari ustida uzluksiz va maqsadga muvofiq yo`sinda olib boriladigan ishlar orqali xatto mintaqaviy – estetik jixatdan etarlicha tayyorgarlik ko`rmagan o`quvchilarda ham musiqaning eng yaxshi na`munalariga qiziqish uyg`otish mumkin.

Bastakorlarning bolalar va kattalarga mo`ljallangan asarlari keng o`quvchilar ommasiga xozirgi zamon kishisining fikr-o`ylari va orzu-umidlarini, voqealikdagi xodisalarni aniqroq hamda to`liqroq tushunishlariga yordam beradi. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, musiqa tarbiyalashga oid ishlarning

tinglovchilar bilimini boyitish ,fikir doirasini kengaytirish va musiqani tushinish qobiliyatini har qancha muxim bo'lsada, bu ishlarning jamiyat uchun ahamiyati faqat badiiy vazifalar bilan chegaralanmaydi.

Boshqacha aytganda, musiqa tarbiyasini takomillashtirishda faqat professional musiqachilarni Yosh musiqaning malakali ixlosmandalarini etishtirishni emas, balki musiqa orqali va musiqa yordamida kishi shaxsining hamma tomonlarini shakillantirishni nazarda tutish kerak .

Musiqa darslarida estetik va axlokiy tarbiyani amalga oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

1 Darsda qo'shiqning she'rini ifodali o'qish orkali o'quvchilarda emoçional kechinmalar hosil qilish.

2 .Etik suxbatlar, savol –javoblar orqali o'quvchilarga asarning g'oyaviy mazmunini singdirish, ularda estetik va axloqiy xislar uyg'otish.

3.Mavzuga xos rasmlarni taxlil qilish orqali o'quvchilar tasavvurini boyitish.

4.O'quvchilarda musiqa asarlari orkali go'zallikni xis qilishga o'rgatish, ularning vokal va xor malakalarini rivojlantirish.

Umumiy ta'lim maktablari oldida har tomonlama garmonik rivojlangan kishini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifa turibdi. Bu muhim vazifani bajarishda san'atning barcha turlari singari musiqa san'atining roli ham beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni Yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T., O'zbekiston, 2010.– 56 bet.
3. Karimov I. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi so'zi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1 sentyabr.
4. Karimov I "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabr.
5. Karimov I. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqi yotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi", "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar.
6. Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida. 2010 yil 27 yanvar.
8. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini Yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.
9. Karimov I.A. Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini Yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 7 yanvar.
- 10.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. "Xalq so'zi". 1997, 30 sentyabr

11. Omonullaev D.F va boshqalar “Birinchii sinfda musiqa darslari”, Uchebno-metodicheskoe posobie. T., 1987, “Ikkinchi sinfda musiqa darslari”. Uchebno-metodicheskoe posobie. T., 1988.
12. Qodirov. R. Boshlang`ich sinflarda ko`p ovozli kuylash 1997.
13. Ortiqov T. “Musiqqa o`qitish metodikasi” T., “Fan” nashriyoti, 2010
14. <http://G`G`go.MicriSoft.com>
15. <http://G`G`Ziyonet.uz>